

MEROS VA HOZIRGI ZAMON

НАСЛЕДИЕ И СОВРЕМЕННОСТЬ

HERITAGE AND MODERNITY



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy memorial majmua byulleteni

Mundarija

- 02** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov haykalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi.
Toshkent shahri, 31.08.2017
- 05** "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori
- 06** "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Abdug'aniyevich Karimov tavalludining 80 yilligini nishonlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori
- 08** Islom Karimov nomidagi yodgorlik majmuasi rahbari T.Sh. Shirinovning kirish so'zi
- 10** YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari vazifasini bajaruvchi Badarch Dendevning tabrik so'zi
- 11** *Umid Azizov, Dilnoza Sobirova*
Islom Karimov va uning O'zbekistonni barqaror rivoj-lantirishidagi roli
- 20** "Otash kabi yonib, o'zgalar yo'lini yorit!" O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning rafiqasi Tatyana Akbarovna Karimova bilan suhbat
- 30** *Umid Azizov*. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning BMT doirasida tashab-buslari va ularning amalga oshirilishi
- 32** *Azamat Tuxtayev*. Mustaqil O'zbekiston me'morchiligi yechimlarida Islom Karimov qarashlarining ifoda etilishi
- 38** *Tursunali Kuziev*. Islom Karimovning O'zbekiston xalqi ma'nnaviy merosi tiklanishiga qo'shgan hissasi

- 43** *Ravshan Nazarov*. Mustaqil O'zbekistonning davlat mukofotlari va ularning yaratilish tarixi
- 46** "O'z ishlarimda men O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining g'oyalarini gavdalantirdim". O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov haykali muallifi I. Jabborov bilan suhbat

Bosh muharrir

Yuliya Sirtsova

Dizayn, sahifalash

Albert Shambazov
Dana Savinova
Djalolxon Kamilov

Foto

Rustam Sharipov
Farkhad Kurbonboev

Ushbu sonni tayyorlaganlar

Tatyana Karimova
Nizomiddin Nurmatov
Umid Azizov
Vahob Quchqorov
Bunyod Abdullaev
Ravshan Nazarov



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahrida

*O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov
haykalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi*

31.08.2017

***Qadrli vatandoshlar!
Hurmatli Tatyana Akbarovna!
Aziz mehmonlar!***

Bugun sizlar bilan azim Toshkentning tabarruk mas-kani – Oqsaroy qarorgohi oldida muhim tarixiy voqeа munosabati bilan to'planib turibmiz.

Buyuk davlat va siyosat arbobi, mustaqil davlatimiz asoschisi, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti muhtaram Islom Abdug'aniyevich xotirasiga bag'ishlab buniyod etilgan haykalning ochilish marosimida ishtirok etmoqdamiz.

Islom Abdug'aniyevich butun umirini jonajon O'zbekistonimiz uchun, uning ozodligi va buyuk kelajagi uchun bag'ishladi.

Islom aka tariximizning eng murakkab va og'ir davrida – millatlararo ziddiyatlar avj olgan, iqtisodiyot chuqr inqirozga uchrab, respublikamiz jar yoqasiga kelib qolgan

keskin va tahlikali bir sharoitda mamlakatga rahbarlik qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga oldilar.

Vatanimiz tarixida yangi davr boshlangan kun – 1991-yil 31-avgustda Islom Abdug'aniyevich O'zbekiston mustaqilligini e'lон qildilar va chorak asr davomida davlatimizni izchillik va sobitqadamlik bilan boshqardilar.

Birinchi Prezidentimiz rahbarligi ostida tarixan qisqa davrda yurtimizda keng ko'lamli tarkibiy islohotlar amalga oshirildi. Yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi sa-noat tarmoqlari barpo etildi va rivojlantirildi. Zamona-viy yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzil-malari buniyod etildi. Qishloq xo'jaligida chuqr islohotlar amalga oshirildi.



n deb, yurtim deb, yonib yashash kerak"
I g'oyasiga bir umr amal qilib, kelajak av-
uyuk ibracht mifiktabini yaratdilar.
millatning haqiqiy yetakchisi sifatida ona
va betakror O'zbekistonni jonidan ham or-
g manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga
hayotining bosh maqsadi, deb bilar edilar.
da, xalqimiz ham doimo el-yurt tashvishi
I Birinchi Prezidentimizni cheksiz mehr bi-
'zining ulug' rahbari sifatida u kishi bilan
'axrlanar edi.

Hurmatli vatandoshlar!

Birinchi Prezidentimizning xotirasini abadiylashtirish uchun xalqimiz, keng jamoatchilikning xohish-istaklari va takliflarini inobatga olib amalgalashirayotgan ishlarimiz, o'ylaymanki, barchangizga yaxshi ma'lum.

Toshkent shahridagi xalqaro aeroport, Toshkent davlat texnika universiteti, Asaka avtomobil zavodi, Farg'on shahridagi San'at saroyi, poytaxtimiz va hududlarimizdaagi markaziy ko'chalar, Oqsaroy qarorgohida o'z faoliyatini boshlagan ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasi, maxsus xayriya jamoat fondi Islom Abdug'aniyevichning muborak nomlari bilan ataldi.

2-sentyabr kuni xayriy ishlarimizning davomi sifatida Islom Abdug'aniyevich tug'ilib voyaga yetgan, mangu orom topgan azim Samarqand shahrida ulug' Yo'lboshchimizning haykali ochilishiga bag'ishlangan marosim o'tkaziladi.

Shuningdek, Qarshi shahrida haykal o'rnatish va Samarqand shahrida yodgorlik majmuasini barpo etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni to'liq yakunlab, u kishining tug'ilgan kuniga 80 yil to'ladigan sana – 2018-yil 30-yanvarda tantanali ochilish marosimini o'tkazamiz.

Muhtaram do'stlar!

Birinchi Prezidentimiz hayotining eng faol va jo'shqini paytini – talabalikdan boshlab umrining oxiriga qadar bo'lgan davrni azim Toshkent shahrida o'tkazdilar. O'zlari ning bor bilim va salohiyatini, g'ayrat-shijoatini O'zbekistonimizning barcha hududlari qatori poytaxtimizning yanada obod va ko'rakm bo'lishiga, gullab-yashnashiga bag'ishladilar.

Islom Abdug'aniyevich Toshkentni Vatanimizning oltin ostonasi, deb atar edilar.

U kishining "Toshkent timsolida O'zbekistonni, O'zbekiston timsolida Toshkentni ko'ramiz" degan chuqur ma'noli so'zlarini shu bugungi tarixiy kunda yana bir bor esga olish o'rinci, deb o'ylayman.

Birinchi Prezidentimiz tomonidan barpo etilgan mana shu qarorgohda u kishining davlat rahbari sifatidagi faoliyatining eng yorqin damlari o'tgan edi.

Aynan shu yerda xalqimiz, mamlakatimiz taqdiri va kelajagiga oid g'oyat muhim bo'lgan ko'plab farmon va qarorlar qabul qilingani sizlarga yaxshi ma'lum.

Bundan bir yil oldin boshimizga tushgan og'ir musibat

tufayli huvillab qolgan Oqsaroy qarorgohi bugun Islom akaning mehrli siyomosi tufayli yanada ochilib, nurafshon bo'lib, el-yurtimizni o'z bag'riga chorlamoqda.

Bugun ushbu qarorgoh oldida xalqimiz, davlatimiz nomidan buyuk Yo'lboshchimizning xotirasiga hurmat-ehtirom ko'rsatar ekanmiz, o'ylaymanki, barchamiz Islom Abdug'aniyevichning bu muazzam haykali shu maydonga alohida ulug'vorlik va salobat bag'ishlab turganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Ishonchim komil, bugundan boshlab ushbu majmua butun xalqimiz uchun bir umrga qutlug' va tabarruk qadamjo bo'lib qoladi, albatta.

Toshkent ahli, mamlakatimizning barcha shahar va qishloqlaridan keladigan vatandoshlarimiz, chet ellik mehmonlar, davlat va jamoat arboblari bu yerga tashrif buyurib, yodgorlik majmuasini ziyorat qilib, Birinchi Prezidentimiz xotirasiga hurmat bajo keltiradilar.

Bu maskanga qadam qo'ygan har bir inson muhtaram Islom Abdug'aniyevich yurgan yo'laklardan, xiyobonlardan o'tib, muzey bilan yaqindan tanishib, istiqolimiz me'mori va asoschisi bilan xayolan uchrashgandek, mu-loqot qilgandek bo'ladi.

Barchamizga yaxshi ma'lum, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidan munosib o'r'in egallashida ham Islom Abdug'aniyevichning xizmatlari beqiyosdir.

Fursatdan foydalaniib, bugungi marosimda ishlardan etayotgan, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan korjiji davlatlarning elchilari va diplomatik korpus va qurʼon O'zbekistonning Birinchi Prezidenti xotirasiga ko'rsatayotgan hurmat va e'tiborlari uchun chin qalbimdan minnatdorlik bildirishga ruxsat etgaysiz.

Aziz do'stlar!

Ishonaman, Islom Abdug'aniyevichning multasim haykali qad rostlagan ushbu qutlug' maskaniga barcha yoshlarimiz uchun Vatanga yuksak mehnat va qiziqar qat ko'rsatib yashashning chinakam timsoliiga e'tibor katta tarbiya va ibrat maktabi bo'lib xizmat oлади.

Oradan yillar, asrlar o'tadi, muhtaram Birinchi Prezidentimizning nomi va u kishi boshchiligidagi amalgalashish buyuk ishlar yurtimizning shonli tarixiga o'chmas bo'lib mangu qoladi.

E'tiboringiz uchun rahmat.

**"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BIRINCHI PREZIDENTI ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOVNING
XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH TO'G'RISIDA"
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI**

Mustaqil O'zbekiston davlatining asoschisi, buyuk davlat va siyosat arbobi, o'zbek xalqining ulug' va ardoqli farzandi, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov Vatanimizni mustabid tuzum qaramligidan ozod qilib, halokat yoqasiga kelib qolgan yurtimizni qayta tikladi. Buyuk Yo'lboshchimiz g'oyat qaltis va tahlilikli bir vaziyatda og'ir qiyinchiliklar va sinovlarga qaramay, tarixan qisqa davrda O'zbekistonni jadal va barqaror sur'atlar bilan rivojlanayotgan zamonaviy demokratik davlatga aylantirdi.

Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining serqirra siyosiy faoliyati, oljanob insoniy fazilatlari bilan Vatanimizning ko'p asrlik tarixida o'chmas iz qoldirdi. U nafaqat O'zbekiston, balki jahon miqyosida katta hurmat va obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan ulkan shaxs va arbob sifatida tanildi.

Ko'p millatli O'zbekiston xalqining qalbidan chuqur joy olgan Birinchi Prezidentimizning so'nmas xotirasini abadiylashtirish bo'yicha vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mamlakatimiz fuqarolaridan ko'plab takliflar tushmoqda.

Xalqimizning samimiy tilaklari va xohish-irodasidan kelib chiqib, ona Vatanimiz mustaqilligi, el-yurtimiz ravnaqiy yo'lidagi buyuk tarixiy xizmatlarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, O'zbekiston Qahramoni Islom Abdug'aniyevich Karimovning yorqin xotirasini abadiylashtirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

2016-yil oktabr oyida Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya jamoat fondi tuzilgani;

Toshkent shahar, Yashnobod tumanining Farg'ona yo'li ko'chasida joylashgan jome masjidga "Islom ota jome masjidi" deb nom berilgani;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda "Buyuk davlat va siyosat arbobi, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov siyoshi tasvirlangan haykalni yaratish bo'yicha xalqaro ijodiy tanlovnii tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilingani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasi (A.Aripov) O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning xotirasini abadiylashtirish chora-tadbirlari rejasini o'rnatilgan tartibda ishlab chiqsin.

Shu munosabat bilan quyidagi vazifalar topshirilsin:

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi va Samarcand viloyati hokimligi bilan birqalikda Samarcand shahrida Islom Karimov dafn etilgan hududda yodgorlik majmuasini barpo etish;

tegishli vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar bilan birqalikda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov siyosini yaratish bo'yicha xalqaro ijodiy tanlovdagi g'olib deb topilgan haykallarni mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrida, Islom Karimov tug'ilib o'sgan Samarcand shahrida va u kishi birinchi rahbar bo'lib ishlagan Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida o'rnatish;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Toshkent shahri va Samarcand viloyati hokimliklari birqalikda: Birinchi Prezidentimiz ko'p yillar davomida faoliyat olib borgan Toshkent shahridagi Oqsaroy qarorgohida (O'zbekiston ko'chasi, 45) Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasini tashkil etish va Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya jamoat fondini ham ushbu manzil bo'yicha joylashtirish; Samarcand shahrida Islom Karimov muzeyini tashkil etish;

quyidagi muassasa va obyektlarga:

Toshkent davlat texnika universitetiga;

Asaka shahridagi avtomobil zavodiga;

Farg'ona shahridagi San'at saroyiga;

Toshkent xalqaro aeroportiga;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardagi markaziy ko'chalarga (mahalliy davlat hokimiyyati organlari takliflari asosida) Islom Karimov nomini berish;

har yili Birinchi Prezidentimiz tavallud topgan sana – 30-yanvar kunini keng nishonlash, 2-sentabr kunini Xotira kuni sifatida yod etish. Ushbu sanalar munosabati bilan ommaviy axborot vositalarida Islom Karimov hayoti va faoliyatini keng yoritish;

olliy o'quv yurtlari talabalari uchun Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasini joriy etish;

Islom Karimovning hayoti va faoliyati haqidagi ilmiy va badiiy asarlar, hujjatlari va badiiy filmlar yaratish;

Islom Karimov siyoshi aks ettirilgan maxsus pochta markalarini chiqarish.

3. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va boshqa ommaviy axborot vositalari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish bilan bog'liq tadbirlar keng yoritisin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.Aripov zimmasiga yuklansin.

**"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BIRINCHI PREZIDENTI, BUYUK DAVLAT VA SIYOSAT ARBOBI
ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOV TAVALLUDINING 80 YILLIGINI NISHONLASH TO'G'RISIDA"
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI**

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Abdug'aniyevich Karimovning ona Vatanimiz mustaqilligi, el-yurtimiz ravnaqi yo'lidagi ulkan tarixiy xizmatlarini inobatga olib hamda u kishining xotirasini abadiylashtirish bo'yicha boshlangan ishlarni davom ettirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya, Yozuvchilar uyushmasi, Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasi, Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya jamoat fondi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda keng jamoatchilikning O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tavalludining 80 yilligini nishonlash (keyingi o'rinnarda yubiley tadbirlari deb ataladi) to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tavalludining 80 yilligini nishonlash bo'yicha tashkiliy qo'mita (keyingi o'rinnarda Tashkiliy qo'mita deb ataladi) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tashkiliy qo'mita ushbu sanani nishonlash bo'yicha tadbirlar rejasini ikki hafta muddatda ishlab chiqsin.

Tadbirlar rejasida quyidagilar nazarda tutilsin:

2018-yil yanvar oyida Samarqand shahrida Islom Karimov xotirasiga atab bunyod etilgan maqbara majmuasini ochish;

Qarshi shahrida Islom Karimov xotirasiga bag'ishlab haykal o'rnatish va tantanali ochilish marosimini o'tkazish;

"O'zbekkino" Milliy agentligi tomonidan Islom Karimov hayoti va faoliyati haqida hujjatlari film yaratish;

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov faoliyati xronikasi (solnoma)" kitobini, "Ma'naviyat" nashriyotida Islom Karimovning "Yoshlar bugungi va ertangi hayotimizning hal qiluvchi kuchidir", "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarlarini, shuningdek, "Prezidentga maktublar" kitobini nashr etish hamda belgilangan tartibda ta'lim maskanlari, axborot-resurs markazlari, madaniy-ma'rifiy muassasalar va mahallalarga yetkazish;

Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasi, Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya jamoat fondi b'ilan birgalikda "Islom Karimov – O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoschisi" mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazish;

2018-yilning I choragiida "Islom Karimov xotirasiga bag'ishlangan eng yaxshi ilmiy-ommabop maqola" tanlovini yakunlash va uning g'oliblarini taqdirlash;

ta'lif muassasalari, harbiy qismlar, mehnat jamoalari va mahallalarda taniqli adib va olimlar, turli soha mutaxassislar ishtirokida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti xotirasiga bag'ishlangan uchrashuvlar tashkil etish.

4. Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya jamoat fondi tomonidan "Islom Karimov – mustaqil O'zbekiston asoschisi" kitob-albomi nashrga tayyorlangani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirligi yubiley tadbirlarida xorijiy mehmonlar, olimlar va ekspertlar ishtirokini ta'minlashda hamda ularga respublikaga kirish vizalarining konsullik va boshqa yig'imalr undirilmasdan rasmiylashtirilishida amaliy yordam ko'rsatsin.

6. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi, "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati yubiley tadbirlariga taklif etilgan xorijiy mehmonlar uchun respublika ichki qatnovlariga yo'l chiptalarini band qilish va sotib olish, ularni mamlakatimizdagi xalqaro aeroport va temir yo'l vokzallarining VIP zallari orqali kutib olish va kuzatishni ta'minlasin.

7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yubiley tadbirlarini o'z vaqtida va uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun zarur mablag' ajratsin.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ushbu qarorning 3-bandida nazarda tutilgan yubiley tadbirlarini o'tkazish bo'yicha zarur tashkiliy chora-tadbirlarni ikki hafta muddatda ishlab chiqsin va ularning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlasin.

9. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga yubiley bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi X.Sultonov zimmasiga yuklansin.





Temir Shirinov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi Ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasining rahbari

Hurmatli o'quvchilar!

Sizlarga murojaat etar ekanman, ushbu nashrimiz orqali Sizlar mamlakatimizning shakllanishi va rivojlanishi tarixining o'ziga xos xususiyatlari va butun hayotini Vatanimizga bag'ishlagan atoqli davlat va siyosat arbobi, o'zbek xalqining buyuk o'g'loni, mustaqil davlatimiz asoschisi – O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov rahbarligida mamlakatimizda ro'y bergan ulkan o'zgarishlar bilan yanada yaqinroq tanishib olishingizga umid bildiraman.

Qiyinchiliklar va og'ir sinovlarga qaramasdan, tarixan qisqa davr ichida Islom Abdug'aniyevich rahbarligida mamlakatimiz zamonaviy, jadal va barqaror rivojlanayotgan demokratik davlatga aylandi. Mamlakatimizning Birinchi Prezidentini ko'p qirrali ijtimoiy-siyosiy faoliyati O'zbekiston tarixida o'chmas iz qoldirdi.

2017-yil 25-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning xotirasini abadiy-

lashtirish to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Unga asosan Vazirlar Mahkamasi tomonidan Birinchi Prezident xotirasini abadiylashtirish bo'yicha tadbirlar Rejasি ishlаб chiqildi va uning doirasida Samarqand shahrida Islom Karimov qabri hududida yodgorlik majmuasi barpo etildi, Toshkent, Samarqand va Qarshi shaharlariда mustaqil mamlakatimizning asoschisi haykallari о'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining nomi Toshkent davlat texnik universitetiga, Asaka shahridagi Avtomobil zavodiga, Farg'on'a shahridagi San'at saroyiga, Toshkent xalqaro aeroportiga hamda Nukus shahri, Toshkent shahri va O'zbekistonning boshqa shaharlaring markaziy ko'chalariga berildi.

2-sentyabr kuni esa Birinchi Prezident xotirasini kuni sifatida yod etilishi belgilandi. 2017-yilning shu kuni mamlakatning barcha ta'lim muassasalarida Islom Abdug'aniyevich Karimov xotirasiga bag'ishlangan darslar o'tkazildi, ularda uning hayoti va faoliyatiga bag'ishlab yaratilgan hujjatli film namoyish etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan olyi ta'lif muassasalarining talabalarini uchun Islom Karimov nomidagi Davlat stipendiyasi ta'sis etildi. O'zbekistonning Birinchi Prezidentining portreti aks ettirilgan maxsus pochta markalari chiqarildi. Davlatimiz asoschisining hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar, hujjatli filmlar yaratilmoqda.

2017-yil 25-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Farmoniga muvofiq, mamlakatning Birinchi Prezidenti uzoq yillar davomida ishlab kelgan Oqsaroy qarorgohida Islom Karimov nomidagi Ilmiy-ma'rify yodgorlik majmuasi tashkil etildi, u o'zining faoliyatini Islom Karimov nomidagi Respublika ijtimoiy xayriya fondi bilan hamkorlikda amalga oshirib kelmoqda.

Yodgorlik majmuasi tarkibiga Muzey, Ilmiy-tadqiqot va ta'lif markazi hamda, kutubxona kiradi.

Yodgorlik majmuasining asosiy vazifalariga quydigilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti xotirasini, uning mustaqillikka erishishdagi, mamlakatchilik qurilishidagi qo'shgan ulkan hissasini va Islom Karimov shaxsining tarixiy rolini, hamda uning merosini ommalashtirishni abadiylashtirish;

- Islom Karimovning buyuk shaxs, zamonaviy O'zbekistonning asoschisi, yaratuvchisi va arxitektori, mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasi yutuqlarini yaratuvchisi, jahon hamjamiyatida mamlakat mavqeini mustahkamlashga asos soluvchisi sifatida hayoti va faoliyatini o'rganish;

- aholini, avvalambor yoshlarni va xorijiy mehmonlarni, O'zbekiston rivojlanishining birinchi qadamlari va keyingi yillarda mustaqillik tarixi bilan tanishtirish, respublikaning muvaffaqiyatlarini targ'ibot qilish;

- yosh avlodni tarixiy va siyosiy madaniyat, vatanparvarlik va o'z Vataniga mas'uliyat hissida tarbiyalash.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tavalludining 80 yilligi arafasida Yodgorlik majmuasi to-



monidan "Islom Karimov xotirasiga bag'ishlangan eng yaxshi ilmiy-ommabop maqola" tanlovi o'tkazilmoqda. Konkurs natijalari bo'yicha g'oliblar aniqlanadi va ularga: bitta bi- rinch o'r'in, ikkita ikkinchi o'r'in va uchta uchinchi o'rinnlar taqdim etiladi.

G'oliblarni tantanali mukofotlash marosimi 2018-yil 30-yanvar – Islom Abdug'aniyevich Karimovning tavallud topgan kuni o'tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Hozirgi kunda Muzey ekspozitsiyasini yaratish, Islom Karimov hayoti va faoliyati bilan bog'liq muzey buyumlari va kolleksiyalari haqidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Yodgorlik majmuasining rasmiy sayti (islomkarimov.uz) ochilgan bo'lib, ushbu sayt Islom Karimov rahbarligida O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida shakllanishi va mustahkamlanishining tarixi bilan tanishitiradi hamda Majmuamiz faoliyatini yoritib boradi.

Ushbu tadbirlarning barchasi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning hayoti va faoliyati misolida yosh avlodni tarbiyalash, uning tarixiy va siyosiy madaniyatni, vatanparvarlik hissi va o'z Vatani uchun mas'uliyatini oshirishiga qaratilgan.



YUNESKO nomidan Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasi xodimlarini "Meros va hozirgi zamон" byulletenining birinchi soni nashrda chiqqani bilan tabriklashga ijozat bersangiz. Ushbu nashr keng ommaga mustaqil O'zbekistonning birinchi qadamlaridan boshlab to keyingi yillardagi rivojlanish tarixi, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov biografiyasi, ishlari, hayoti va faoliyati bilan tanishish, yodgorlik majmuasi tomonidan o'tkazilayotgan turli ilmiy va ma'rifiy tadbirlar haqida ma'lumot olish imkoniyatini taqdim etadi.

Shuningdek, turli ko'rlik-tanlovlardan o'tkazib, yurtimiz va xorijiy mamlakatlardagi peshqadam universitetlarda tahsil olish uchun grantlar ajratish yo'li bilan iqtidori yoshlarga ko'maklashayotgan Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya ja-moatchilik fondi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar ham tafsinga sazovor ekanini ta'kidlash lozim.

Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasiga barcha tashabbuslari va ishlarida katta yutuqlar, "Meros va hozirgi zamон" byulleteniga esa doimiy va sadoqatli mushtariylarga ega bo'lishni tilayman.

Badarch Dendev

YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari vazifasini bajaruvchi

ISLOM KARIMOV VA UNING O'ZBEKISTONNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHIDAGI ROLI

Taniqli siyosatshunos Leonid Levitin bir kun shunday degandi: "Isrom Karimovning mamlakat boshqaruviga kelishini Uinston Cherchill 1940-yilda, ya'ni Angliya halokat yoqasida turgan davrda, mamlakat rahbarligini o'z qo'lliga olganiga o'xshatish mumkin. Cherchill Angliya parlamentining quyi palatasidagi nutqida quyidagi so'zlarni aytgandi: "Men faqat mehnat, ko'z yoshlari va peshona terini taklif qila olaman. Bizni eng qayg'uli va eng og'ir sinovlar, uzundan-uzoq oylarga cho'ziladigan kurash va azob-uqubatlar kutmoqda. Siz mendan "Maqsadimiz nima?", deb so'rashingiz mumkin. Men faqat "G'alaba!", deb javob berishim mumkin. G'alabaga bo'lgan yo'l qanchalik uzoq va mashaqqatli bo'lmasin, men faqat g'alaba deya olaman, sababi, g'alaba qozonmasak, halok bo'lismiz muqarrar. Biz yutqazishimizga odamlar yo'l qo'ymasliklariga ishonaman"[7].



SSSR parchalanib ketganidan keyin O'zbekistondagi vaziyat, butun sobiq ittifoq hududida bo'lgani kabi, ko'p yillar davomida shakllanib kelgan xo'jalik, ishlab chiqarish va moliyaviy munosabatlarning to'liq yemirilishi, qonunchilikdagi vakuum va aholining bir qismi uchun xos bo'lgan huquqiy nigelizm tufayli yuzaga kelgan iqtisodning keskin pasayib ketishi bilan tavsiflanadi. Bu holatni shu davrgacha ustuvor hisoblangan kommunistik mafkura va shu mafkura bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlар tizimidan keskin voz kechilishi bilan izohlash mumkin. Natijada mamlakatda inflyatsiyaning yuqori sur'atlarda oshishi, aholi real daromadlarining keskin pasayishi va ishsizlar sonining ortishi kabi salbiy tendensiyalar namoyon bo'la boshladi.

Millatlararo va urug'lارaro ziddiyatlar yuzaga kela



boshladi. Undan tashqari, aholida, birinchi navbatda yoshlar orasida radikal kayfiyatlarning o'sishi hamda Afg'onistonda davom etayotgan harbiy qarama-qarshilik va Tojikistonda boshlangan fuqarolar urushi vaziyatni yanada chigallashtirishga olib kelmoqda edi.

Mana shunday muammolar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovga meros bo'lib qolgan edi. Aynan uning noyob yetakchilik sifatlari, metin irodasi, vatanparvarligi, chuqur va puxta o'ylangan siyosatni izchillik bilan olib borishi mamlakatning xaos holatiga tushib qolishining oldini olishga va xalq tinchligi va birdamligini saqlab qolishga imkon yaratdi.

U MDH rahbarlari orasida "Shok terapiysi" yo'li biz uchun nomaqbuldir, odamlarni faqatgina maqsadga, hatto o'sha maqsad ezgu bo'lsada, erishish vositasi sifatida ko'rib bo'lmaydi. Men odamlar ochlik va nochorlikka duchor bo'lislariiga, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining yemirilishiga, bemorlar shifoxonalarsiz, bo-



lar esa maktablarsiz qolishiga yo'l qo'ymayman" degan birinchi va katta ehtimol bilan yagona rahbar bo'ldi.

Tarixdan ma'lumki, aynan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar almashishi ro'y berayotgan keskin tarixiy o'zgarishlar davrida ijtimoiy ziddiyatlar va muammolar yanada dolzarb tusga ega bo'ladi va milliy xafsizlik, fuqarolar tinchligi va mamlakatdagi barqarorlikka tahdid soluvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Islom Karimov O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy



rivojlanishi hamda davlat va fuqarolar jamiyati qurilishi strategiyasini xalqimizdagagi tarixiy shakllangan milliy va madaniy qadriyatlardan kelib chiqib, asosiy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy trendlarni xolisona baholagan holda belgilagan edi. Bu eng oqilonqa va to'g'ri tanlov edi, ya'ni bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni ulkan va inqilobiy o'zgarishlarsiz, balki sobitqadamlik va izchillik bilan – bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Prezident I. Karimov strategiyasining o'tish davridagi birinchi, va shubhasiz, eng muhim postulati, bu imkon qadar kamroq ijtimoiy yo'qotishlarsiz harakat qilish, odamlarga ziyon yetkazmaslikdan iborat edi. Islom Karimov ushbu postulatni quyidagicha bayon etgan: "O'zbekistonning o'z yangilanishi va taraqqiyot yo'liga asos qilib olingan yetakchi tamoyillardan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iboratdir... Ishonchli ijtimoiy kafolatlarni va aholini ijtimoiy himoyalash choralarini ta'minlash bozor o'zgarishlarining hamma bosqichlari orqali o'tadi va jamiyatimizni yangilashdan iborat g'oyat keng jarayonning boshqa yo'nalishlarini ham qamrab oladi" [2].

Mazkur strategiyaning ikkinchi postulatining mazmuni quyidagicha ifodalangan: siyosiy barqarorlikning ta'minlanishi iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatlari kechishining zarur shartidir. Shu o'rinda I.A. Karimovning quyidagi tezisini eslash o'rinni – "yangi uy qurmasdan turib, eski uyni buzma", ya'ni – avvalgi davlat apparatini shoshib, puxta o'yamasdan turib buzish, foydadan ko'ra ko'proq ziyon yetkazadi, bu ishda izchil yo'l tutish zarur.

Mamlakatni isloh qilish va milliy davlatchilik poydevorini shakllanitirish strategiyasini amalga oshirishda Islom Karimov tomonidan qo'yilgan birinchi qadam, bu tanxan juda qisqa muddatlarda Bosh Qonun – O'zbekiston Respublikasi Konstitutiyasining ishlabi chiqilishi va qabil qilinishi bo'ldi. Islom Abdug'aniyevich yangi Konstitutsiyani yaratish bo'yicha komissiyaga rahbarlik qildi va mamlakatda davlat va jamiyat qurilishining asosiy prinsiplarini ishlabi chiqish va mustahkamlashda bevosita ishlab etdi. Uning muhim holatlari quyidagilarda qayd qilingan:

- davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga qiladi;
- O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, mamlakat tashkil etadi;
- barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun tengdirlar.

Konstitutsiyada iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat erkinligi davlat tomonidan kafolatlanganligi; teng huquqlilik, mulkchilikning barcha shakllari, shu jumladan xususiy mulkning huquqiy himoyasi va daxlisizligi; shuningdek davlat hokimiyatining tizimi qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga bo'linishi belgilab qo'yildi. Sud hokimiyati tizimining yaxlitligini shakllantirish bo'yicha masalalar muvaffaqiyatlari tarzda hal qilindi.

Bundan tashqari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi – mahalla institutini rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Qisqa muddatda milliy Qurolli kuchlar va xavfsizlik organlari tizimi yaratilib, O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini, konstitutsiyaviy tuzumini, jamoat tartibini ishonchli himoya qilinishi ta'minlandi va xalqaro terrorizm va ekstremizmga, narkoagressiyaga qarshi kurash yo'lga qo'yildi.



Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning va mamlakat xavfsizligining chuqur tahibili asosida mamlakatda tinchlik, xotirjamlik va barqarorlikni saqlashga ko'maklashuvchi xavfsizlikni ta'minlashning yaxlit tizimi to'liq ishlashi uchun mustahkam huquqiy asosni yaratib bergen "O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasi to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiysi" va boshqa bir qator hujjatlar qabul qilindi.

Parlament Ombudsmani, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz kabi bir qator fuqarolik va jamoat



institutlarini shakllantirish bilan bog'liq masalalar ham Islom Karimovning diqqat markazida bo'ldi.

Birinchi Prezident rahbarligi ostida O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati Konsepsiya ishlab chiqilgan bo'lib, uning negizida tinchliksevarlik va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, paydo bo'luvchi ziddiyatlar va nizolarni faqat tinchlik, siyosiy yo'l bilan hal qilish yotardi. Bu hujjat 2012-yili mamlakat parlamenti tomonidan tasdiqlandi.

Islom Karimov O'zbekiston vujudga kelgan barsha ziddiyatlarni, hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmasdan, o'z hududida xorijiy harbiy bazalarning joylashtirilishini va mamlakat tashqarisida o'z harbiy xizmatchilarining bo'lishiga yo'l qo'ymasdan faqat tinchlik va siyosiy yo'l bilan hal etish pozitsiyasida mustahkam turishini bir necha bor ta'kidlab o'tgan.

U doimo "bizning xalqimizga tinchlik va osoyishtalik kerak. Bu – O'zbekiston xalqining istagi, bu – bizning xalqimizning maqsadi, bu – uning qat'iy qarori" ekaniga alohida urg'u berar edi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng Birinchi Prezident rahbarligi ostida O'zbekistonning faol tashqi siyosati

amalga oshirib kelingan. Islom Karimov bir necha bor BMT Bosh assambleyasida va boshqa xalqaro tashkilotlarning sessiyalarida so'zga chiqqan va ularda eng muhim va dolzarb xalqaro muammolarni hal qilish bo'yicha eng oqilona va jo'yali tashabbuslarni taklif etgan.

Uning terrorizm va narkobiznesga qarshi kurashish hamda Markaziy Osiyoda "xavfsizlik kamari"ni shakllantirish bo'yicha kuchlarni birlashtirish taklifi O'zbekistonda ShHT Mintaqaviy terrorizmga qarshi tuzilmasining shtab-kvartirasi ochilishi hamda Markaziy Osiyoda yadro quroldidan ozod zona yaratilishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston ShHTga asos solgan mamlakatdan bini bo'ldi va bu muhim mintaqaviy tashkilotda ikki marotaba raislik qildi.

2016-yil iyun oyida Toshkentda Shanxay Hamkorlik Tashkilotida O'zbekiston Respublikasi raislik qilgan davrda ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari Kengashining yig'ilishi o'tkazilib. ShHT faoliyatini takomillashtirish kelajakda har xil yo'nalishlarda hamkorlikni kengaytirish bo'yicha muhim hujjat va qarorlar qabul qilindi.

Islom Karimov Markaziy Osiyo haqida so'z yuritgani-da, dunyo sal kam yuz yillarga unutgan Markaziy Osiyo deb nomlanuvchi geosiyosiy kenglik hozirda o'zini yangi sifatda ko'rsatmoqda va siyosiy sharoitlarda o'ziga xos bo'limgan o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda, deb ta'kidlab o'tardi. Shu bilan bir vaqtida bu mintaqa, hozirgi kunda bu yerda ko'pchilik mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy manfaatlari markazlashayotgan davrda tashqi siyosiy kursni shakllantirish strategiyasida muhim va hal etuvchi element bo'lib qolmoqda.

Markaziy Osiyo instituti direktori, ushbu mintaqa masalalari bo'yicha Amerikaning yetakchi mutaxassislaridan biri hisoblangan Frederik Starning fikricha, "Markaziy Osiyodagi davlatlar ichida faqat O'zbekiston mintaqaviy barqarorlikni ta'minlovchi kuch sifatida ko'riliши mumkin" [3].

Milliy iqtisodiyotning shakllantirilishi va uning tubdan isloh qilinishi, shu jumladan bozor iqtisodiyotining huquqiy asoslарining yaratilishi mamlakatning mustaqil rivojlanishi va O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim va ustuvor asoslari bo'lib qoldi. Islom Karimovning fikriga ko'ra, "faqat kuchli va mustahkam huquqiy asos mavjud bo'lsagina zamonaviy bozor iqtisodiyotiga ega yangi jamiyat yaratish mumkin" [4].

Birinchi Prezident tomonidan amalga oshirilgan kompleks islohotlar natijasida iqtisodiyotda tuzilmaviy o'zgarishlar, barcha moliyaviy institutlar va real sektor tarmoqlarining barqaror va uzlusiz ishlashini ta'minlash, bozor mexanizmlarini keng tatbiq qilish, ishlab chiqarish

sarmoyalar jalb qilindi. Bularning barchasi mamlakatning iqtisodiy salohiyati va jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga, kelajakdagи rivojlanishi uchun mustahkam poydevorni shakllantirish uchun mustahkam asos yaratilishiga yordam berdi.

Mamlakatda respublikamiz uchun mutlaqo yangi bo'lgan neft-kimyo va avtomobilsozlik kabi yuqori texnologik sanoat tarmoqlari yaratildi. Farmatsevtika, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi va temir yo'l mashinasozligi, shuningdek elektrotexnika, to'qimachilik mahsulotlari hamda zamonaviy qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohalari yanada rivojlnana boshladi.

O'z imkoniyatlari va salohiyatiga ko'ra noyob hisoblangan Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi, Qo'ng'irot soda zavodi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi, Andijon, Samarqand, Toshkent va Xorazm viloyatlarida avtomobil zavodlari kabi sanoat ob'ektlari barpo etildi.

Zamonaviy davlatni rivojlangan infratuzilmasiz tasavvur qilish mumkin emas. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida milliy potensialni oshirish va ularni xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga keng tatbiq qilish bo'yicha ishlar tez sur'atlarda amalga oshirildi. Muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish Dasturi ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.

Ko'pgina o'zgarishlar bilan bir qatorda Qamchiq tog'dovonida o'tkazilgan noyob tonnel orgali Angren-Pop, shuningdek Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'l liniyalari qurildi. Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Toshkent-Samarqand-Buxoro-Qarshi yo'nalishi bo'yicha tezkor temir yo'l qatnovi ochildi.

Xalqaro aeroportlar modernizatsiya qilindi, "Navoi" aeroporti va O'zbek milliy avtomagistrali bazasida xalqaro logistika markazlari tashkil qilindi.



diversifikatsiyasi, texnik va texnologik jihatdan uzlusiz yangilanishi va rivojlantirilishi izchillik bilan amalga oshirildi, buning uchun yirik investitsiyalar, jumladan xorijiy



Mustaqillik yillarda mamlakatning, shahar va qishloqlarining tashqi qiyofasi tubdan o'zgardi. Hozirgi



kunda O'zbekiston katta qurilish maydoniga aylangan. Har yili yangi sanoat korxonalari ishga tushirilmoxda, o'quv maskanlari, sog'lqnini saqlash muassasalari va boshqa turdag'i ijtimoiy soha ob'ektlari qurilmoqda. Alohiда diqqat keng miqyosda amalga oshirilayotgan turar joy qurilishiga qaratilmoqda.

Islom Abdug'aniyevich tashabbusi bo'yicha qishloq aholisi uchun shahar sharoitlariga yaqinlashtirilgan yashash sharoitlarini yaratish maqsadida imtioyzi shartlarda uzoq muddatli ipoteka kreditlari ajratilishi bilan Qishloq joylarda namunaviy loyihibar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi davlat dasturi qabul qilindi.

Islom Karimovning puxta o'ylangan va izchil amalga oshirilayotgan siyosati tufayli mamlakatning agrar sohasi tubdan isloq qilinib, bugungi kunda qishloq xo'jalik asosini fermerlik xo'jaliklari tashkil etadi. Bu yerda juda muhim bir jihatga e'tibor qaratish lozim, don mustaqil-

ligiga erishish orqali aholini uzluksiz un va non bilan ta'minlash barobarida o'zimizdag'i ishlab chiqarish hisobiga aholining go'sht, sut va go'sht-sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish masalasi hal etildi. Sanab o'tilgan yutuqlarda Islom Karimovning fidokorona mehnati eng muhim rol o'ynagan edi.

Mustaqillikning ilk yillardan boshlab Islom Karimov tomonidan zamonaviy O'zbekiston uchun yangi bo'lgan bozor iqtisodiyotining asoslari yaratildi. Bozor infrazilmasi institutlarini yaratish va raqobat muhitini shakllantirish orqali bozor iqtisodiyoti munosabatlarining



mexa- nizmi ishga tushirildi.

Milliy iqtisodiyotda kichik va xususiy biznes muhim o'rinni egalladi. Xususiy sektor vakillari uchun imtiyozlar va preferentsiyalar belgilandi, xom-ashyo resurslaridan foydalanish uchun imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston 25 yil ichida barcha sohalardagi muvafaqiyatlarini va dinamik rivojlanishini namoyish etgan holda, o'z fuqarolari xavfsizligini ta'minlash, ularning moddiy farovonligi va ijtimoiy himoyasini oshirish, shuningdek turli xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi masalalariga alohiда e'tibor qaratadigan barqaror mamlakatga aylandi.

Islom Karimov tomonidan yaratilgan "o'zbek modeli" asosida amalga oshirilayotgan islohotlar bir necha bor ekspertlar tomonidan yuqori e'tirofga sazovor bo'lganlar.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik qilish bo'yicha Yevroparlament delegatsiyasining raisi Iveta Grigule so'zlariga ko'ra, "25 yil avval qanday holatda va qanday merosga ega bo'la turib O'zbekiston rivojla-



nishni boshlaganini hisobga oladigan bo'lsak, mamlakat mustaqillik yillarida aql bovar qilmas yutuqlarga erishgan"^[5].

Keng ko'lamli o'zgarishlar natijasini aholi soni bir yarim barobarga ortgan sharoitda jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning bir necha barobarga ortganida ham ko'rish mumkin. Shahar va qishloqlarning qiyofasi tubdan o'zgartirildi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohaning zamonaviy infiltratzilmasi yaratildi, bularning barchasi rivojlanishning "o'zbek modeli" hamda mamlakat ravnaqi, har bir fuqaro manfaati uchun davom ettirilayotgan islohotlar siyosatining yorqin ifodasidir.

Pirovard natijada, Islom Karimov aytganidek: "Biz nafaqat mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka, balki mamlakatni yangilash bo'yicha o'tkazilayotgan islohotlar aholi tomonidan keng qo'llab-quvvatlanishiga ham erishdik"^[6].

Istiqlolni aniq ko'ra bilish va xalqning aql bovar qilmas kuchiga ishonch unga quyidagi ilhomlantiruvchi va mobilizatsiyalovchi maqsadli tezisni shakllantirish imkoniyatini berdi: "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat". Yetakchingin bunday pozitsiyasi, albatta, mamlakatdagi psixologik muhitga ta'sir etgan, insonlarning yangi dunyoqarashini shakllantirishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan, jamiyat hayotining barcha sohalarida keng qamrovli islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam berdi.

Mamlakatda insonning hayoti va faoliyatini, ruhiyatni va ma'nnaviyatini qamrab oluvchi ijtimoiy-siyosiy muhit qaror topib, bu O'zbekistonda shakllanayotgan inson-parvar jamiyatning ma'nnaviy qiyofasini, siyosiy legitimligini, ijtimoiy va huquqiy barqarorligini aniqlab bergen edi.

Eski aqida va andozalardan butunlay voz kechib, Islom Karimov tashabbusi bilan kadrlarni tayyorlash



bo'yicha Milliy dasturi ishlab chiqildi va amalga oshirildi, zamonaviy xalqaro standartlari asosida ta'lif tizimini tubdan islohot qilindi. Bu O'zbekistonda davlat siyosatining ustivor yo'nalishi bo'lib qoldi. Mamlakatda Yevropa va Osiyoning Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti, Janubiy Koreyaning Inxa universiteti kabi yetakchi oliy o'quv yurtlarining filiallari faoliyat yuritib kelmoqda.

Islom Karimov o'sib borayotgan yosh avlodni tarbiyalashning principial yangi tizimini yaratish va hayotga tatbiq qilish ishlariga bevosita rahbarlik qildi, pirovord natijada bizning yoshlarimiz tafakkuri va dunyoqarashi tubdan o'zgardi.

Mamlakatning millionlab farzandlari, yigit va qizlari yangi ta'lif standartlari va o'quv dasturlari, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ta'lif va tarbiyaning shunday yuqori darajasini olayaptilarki, bu ularga kelgusida hayotda munosib o'rinnarini egallab, O'zbekistonning samarali ta'lif modelini, uning xalqaro sahnada raqobatbardoshligini yaqqol namoyish etib kelishmoqda.

Islom Karimovning faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri, bu onalik va bolalikni muhofaza qilish, o'sib



borayotgan avlod salomatligini, ma'nnaviyati, ahloqi va jismoniy tarbiyasini mustahkamlash masalalari bo'lgan. Bu yo'nalishning davomi sifatida Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan "Sog'lom avlod uchun" ordenining ta'sis etilishi va mustaqil O'zbekiston tarixida birinchi nodavlat xayriya tashkiloti hisoblangan shu nomdagagi jamg'armaning tashkil etilishi. Shu bilan birga, "Sog'lom ona – sog'lom bola" davlat dasturi qabul qilinib, uning asosiy

maqsadi mamlakatimizda onalik va bolalik himoya qilinishini yaxshilashdan iborat bo'lib, ushbu dastur xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholandi.

Sog'liqni saqlash sohasida tizimli davlat siyosatining yuqori samaradorligi bugungi kunda O'zbekistonning barcha fuqarolari yuqori malakali tibbiy xizmatlardan



foydalanish imkoniyatiga ega ekani bilan tasdiqlanmoqda. Davlat tomonidan kafolatlangan bepul shoshilinch tibbiy yordamning va maxsus ilmiy-amaliy tibbiy markazlar tarmog'ining prinsipial yangi tizimlari shakllantirilgan. Hamma viloyatlarda ko'p tarmoqli, tibbiy, perinatal va skrining markazlari faoliyat yuritmoqda. Sog'liqni saqlash muassasalarining ishi BSST standartlariga javob beruvchi profilaktika, tashxis va davolashning yetakchi texnologiyalariga asoslangan.

Mustaqillik yillarda mamlakatda onalar va bolalar o'limi uch marotabaga qisqargan. Aholi, va eng asosiysi, bolalar va yoshlar salomatligining umumiyligi ko'rsatkichlari

o'sib bormoqda. Insonlarning turmush va salomlik sifatlari yaxshilandi. Erkaklarda o'rtacha umrdavomiyligi 66 dan 73,5 yoshgacha, ayollarda esa yoshgacha ortdi.

Shunday qilib, Prezident Islom Karimov tomon belgilab berilgan mamlakatdag'i barcha o'zgarish "Islohotlar islohotlar uchun emas, insonlar uchun" ta'riflangan bosh mezoni amalda namoyon bo'ldi.

O'zbekistonda barcha millatlarning vakillari o'sib bilan kafolatlangan batamom teng huquqlarga ega. Islom Karimov barcha fuqarolarning millati va munosibligi, ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumoti, kasadi diniy e'tiqodidan qat'i nazar tengligi kafolati edi.

"O'zbekiston – bizning umumiy uyimiz" – bu islohot Karimovning aniq ifodalangan va izchillik bilan amalga oshiriluvchi tezisi tinchlik va millatlararo hamjihat saqlanishiga yordam berdi.

Hozirda O'zbekistonda 130 dan oshiq millat va etnik vakillari tinchlik va o'zaro totuvlikda yashab kelmoqda. Ularga o'z milliy madaniyatlarini, tilini, milliy hunarani, an'analarni va urflarini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Maktablar va oliy o'quv yurtlarida yetta tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozog', qirg'iz, tojik va turkman tillarida ta'lim berib kelinmoqda. Ko'pgina tillarda ro'znomalar, oynomalar, kitoblar chop etilmoqda, teleko'rsatuvarlar va radioeshittirishlar efiriga chiqmoqda. 140 taga yaqin respublika va hudud milliy madaniy markazlari faoliyat yuritmoqda. Milliy va madaniy turmushning bunday turfa ko'rinishlari mamlakatda hayotning ajralmas qismi sifatida ko'riladi, ujamiyatning takrorlanmas va boy umumiy madaniyatini shakllantiradi.

Mamlakatdag'i tinchlik va xotirjamlik, millatlararo va



fuqarolararo hamjihatlik, O'zbekiston halqining birligi va birdamligi uning bebafo boyligi va Mustaqillikning bosh yutug'i hisoblanib, jamiyatdagi barqarorlikning muhim omili bo'lib qoladi. Millatlararo munosabatlarni mustahkamlashda O'zbekistonning pozitiv tajribasi hozirgi kun-da ko'pgina davlatlarda o'rganib kelinmoqda.

Islom Abdug'aniyevich bizning xalqimizning ma'naviy boyliklariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, bizning muqaddas dinimizni, an'analarimizni va urf-odatlarimizni, bebafo tarixiy merosni saqlab qolishni va rivojlantirishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Prezident ma'naviy tiklanish jarayonining, milliy o'zini-o'zi anglashni mustahkamlash, xalqning tarixiy xotirasini tiklash, O'zbekistonning zamonaviy rivojlanishini oziqlantiruvchi uning yirik ilmiy va madaniy potensialini ehtiyojkorlik bilan saqlashning tashabbuskori bo'lgan.

Islom Karimovning urinislari evaziga bu dunyoda yashagan va ijod qilgan "Mashriq Renessansi" kabi noyob vogelikdek buyuk merosni tashkil etgan atoqli davlat arboblari va olimlarning, mutafakkirlar va ma'rifatchilarining nomlari tiklandi.

Islom Karimovning novatorlik kuchi, bu tanlangan yo'l to'g'riligiga qat'iy ishongan holda, jamiyat hayotining



barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish barobarida mamlakatning bir tuzumdan boshqa tuzumga o'tish jarayonini qat'iyatlik va donolik bilan boshqorganidadir.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining butun hayoti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zbek xalqining buyuk o'g'loni ekanligini, o'zining butun hayotini Vatanga xizmat qilishga bag'shida etganligini ko'rsatdi.

1. Левитин Л. Узбекистан на историческом повороте. – М., 2001. – 4–5-б.
2. Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. / По пути безопасности и стабильности развития. Т. 6. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 169-6.
3. Starr F.S. Making Eurasia Stable // Foreign Affairs, 1996, January/ February. № 1. Vol. 75. – P. 80-92.
4. Каримов И.А. Узбекистан по пути углубления экономических реформ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 27-б.
5. 2017 йил 19 январдаги "Народное слово"
6. Каримов И.А. Узбекистан: 16 лет независимого развития. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 10-6.

Umid Azizov

*Islom Karimov nomidagi Yodgorlik majmuasining
xalqaro bo'lim mudiri*

Dilnoza Sobirova

*Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya jamoat
fondi xodimi*

"OTASH KABI YONIB, O'ZGALAR YO'LINI YORIT!"

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning rafiqasi Tatyana Akbarovna Karimova bilan suhbat

– Hurmatli Tatyana Akbarovna! Shu kunlarda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov tavalludining 80 yilligi nishonlanmoqda. U kishini Yurtboshimiz sifatida yaxshi taniymiz. Birinchi Prezidentimiz kundalik hayotda, oila davrasida qanday bo'lganlari o'quvchilarimizni qiziqtirishi tabiiy.

Biz Islom Abdug'aniyevichni irodali, sobitqadam, qat'iyatli, jasur, yuksak obro' qozongan donishmand inson deb bilamiz. Bunday fazilatlar qanday shakllangan? U kishi ning bolalik yillari haqida Sizga nimalar ma'lum?





Oilaviy surat. 1928-yil. Abdug'ani ota (1894-yilda tug'ilgan), Sano-bar aya (1902-yilda tug'ilgan), farzandlari Mehriniso (1920-yilda tug'ilgan), Amonullo (1922-yilda tug'ilgan) va Ibodullo (1926-yilda tug'ilgan) bilan

– Haqiqatan ham, Islom Abdug'aniyevichning butun hayoti fe'l-atvordinagi o'ziga xos xislatlar haqida shahodat beradi. Nimagaki erishgan bo'lsalar, bari o'sha xislatlari tufaylidir.

Islom Abdug'aniyevichning bolaligi urush va urush- dan keyingi og'ir damlarga to'g'ri keldi. Kichikligidayoq peshona teri bilan non topish nima ekanini bildi. Samarqandning eski shahar qismida yashagan oddiy oila. Islom Abdug'aniyevich mакtabga chiqqan kezлari rus tilini bilmas edi, ammo bukilmas irodasi, qat'iyati va sobitqadamligi bois mакtabni oltin medalga bitirdi. U yozgan insholar namuna o'laroq butun sinfga o'qib berilar edi. Keyinroq sinfdoshlaridan biri tan olishicha, uning insholaridan oliy o'quv yurtiga kirish imtihonida "shpargalka" sifatida foydalanishgan. Shu tariqa oddiy oilada voyaga yetgan yigit mакtabni muvaffaqiyatli tamomlab, taqdiriga peshvoz chiqmoq uchun safarga otlandi. O'sha kezlar oltin medal va olam-olam orzular uning

bor-yo'q bisoti edi. U kindik qoni to'kilgan ona zaminga mustaqil O'zbekistonning Birinchi Prezidenti bo'lib manguga qaytdi.

Sinfdoshlardan biri Islom Abdug'aniyevichning shaxsiy maslagini yorqin namoyon etuvchi, mакtab yillariga doir bir voqeani xotirlagan edi. Yozgi meva yig'im-terimi payti yoshi ulug' bir kishi bolalardan kelajakda kim bo'lislari haqida so'raydi. Ko'pchilik uchuvchi, tokar kabi kasblarni egallash istagini bildiradi. Islom Abdug'aniyevichning javobi esa bolalarni ham, kattalarni ham hayron qoldiradi: "Men Amir Temur kabi ulug' inson bo'laman!".

Mакtab yillaridanoq Maksim Gorkiy hikoyasi personaji – o'z jonidan kechgan, yuragini mash'al kabi yoqib xalqni qutqarib qolgan Danko eng sevими adabiy qahramoni edi. Uning "Otash kabi yonib, o'zgalar yo'lini yorit!" degan shiori yosh Islom Abdug'aniyevichning yuragida muhrlanib qoldi. Bu keyinroq Prezidentning hayotiy maslagiga aylandi.



– Islom Abdug’aniyevich bilan 1970-yili Samarqanda, muhandislik-texnologiya fakultetining oxirgi kursida o’qigan kezlarim tanishganmiz. Birinchi ushrashuvimiz uning akasi Ibod G’aniyevichning uyida bo’lgan. Ibod G’aniyevichning rafiqasi Xayriniso Sultonovna mening xolavachcham edi. Men talabalar yotoqxonasida istiqomat qilar, darsdan keyin ularning uyiga tez-tez mehmonga borib turar edim. Ibod G’aniyevich oqko’ngil, aqlli va odamshavanda inson, boz ustiga, yaxshi suhbadosh ham edi.

Yangi yil bayrami eshik qoqib turgan kunlarning bida ularning uyida o’tgan navbatdagi mehmondorchilikdan so’ng endigina ketishga taraddud ko’rib turganimda yosh bir yigit kelib qoldi. Uni menga Ibod G’aniyevichning ukasi deb tanishtirishdi. Bu Islom Abdug’aniyevich edi. Birinchi uchrashuvimizda deyarli gaplashmadik. O’shanda opam yo’ldan kelgan mehmon qo’lini yuvishi uchun ko’zadan suv quyib berishimni so’radi. Keyin oila davrasida yana bir-ikki bor uchrashdik.

Kechagidek yodimda, martning yettinchi kuni, ayni bayram arafasi edi. Ko’klamning xush iforga to’la iliq havozi. Shig’alab yog’ib o’tgan yomg’irdan keyin atrof-borliq toza, musaffo va go’zal bo’lib ketgan. Ko’lmaklarda

– *Sizlar qanday tanishgansizlar? Bo’lajak turmush o’rtog’ingiz Islom Abdug’aniyevich qalbingizni qanday zabit etganlar?*

osmon parchasi aks etar, ko’ngillar yorishib, farahbaxsh hislarga limmo-lim to’lgan edi. Men talabalar yotoqxonasida edim. Ittifoqo meni birov so’rab kelganini xabar qilishdi. Kelgan kim ekani yetti uqlab tushimga ham kirmagani rost. Chiqib ko’rdimki, meni yo’qlab kelgan odam Islom Abdug’aniyevich ekan.

U meni xiyobonda sayr qilishga taklif qildi. Biz ilk bor yolg’iz o’zimiz ko’rishib, gaplashib turgan edik. Tabiat, ob-havo, o’qish haqida suhbatlashdik. Odatiy suhbat. Lekin sayr asnosida Islom Abdug’aniyevich to’xtab, hech kutilmaganda “Menga turmushga chiqasizmi?” deb so’radi. Men uchun bu mutlaqo kutilmagan hol edi. Qanday izohlashni ham bilmayman, men shunday holga tushgan edim: aql vaziyatni hali to’liq anglab, baholab bo’lmasdan, qalb va yurak “ha” deya javob berib bo’lgan edi. Ko’ngil shubhayu gumondan xoli kezlarda shunday bo’ladi. Men bu insonning kuchi, samimiyati, jozibasi, qat’iyati va nedir bir ohanrabosini sezgan bo’lsam kerak... Men “ha” deya javob berdim. Bari ana shunday kechgan edi. Bor-yo’g’i bir necha qisqa uchrashuv...

Islom Abdug’aniyevich aprelda ota-onamdan qo’limni so’ragani Quvasoyga bordi. To’yimiz may oyida dastlab Samarqandda, keyinroq Quvasoyda bo’lib o’tdi.



– Islom Abdug’aniyevich bilan ko’p yillar birga hayot kechirdingiz. Umr yo’lingiz, birgalikda qanday qiyinchiliklarni yengib o’tganingiz xususida ham so’zlab bersangiz.

– To’ydan keyin Toshkentdagı ikki xonali kvartirada juda oddiy hayot kechira boshladik. Bu kvartirani Islom Abdug’aniyevich Davlat plan komiteti raisining yordamchisi bo’lgan kezlarda olganlar. Tinch-totuv yashaganmiz, maoshimiz barcha ehtiyojlarimizga yetmagani bois ta’mirlash ishlarini o’zimiz qilganmiz. Bo’yoq olib kelib, o’zimiz xona oqlaganmiz, eshik bo’yanjamiz, polni loklaganmiz, balkon derazasiga oyna solganmiz. Hech qachon ta’mir ishidan qochnaganmiz! Odatda, Islom Abdug’aniyevich uydagi ta’mir yumushlarini o’zi qilardi. Barcha ishlari baroridan kelar edi. Sirasini aytganda, u barini o’z qo’li bilan qilishni yaxshi ko’rardi. Kerak paytda qidirib qolmasdik, uyimizda turli asboblar solingen butun boshli jomadon bo’lardi. Parma, bo’yoq cho’tkasi, qisqich, ombur, buragich, bolg’a va boshqa birtalay asboblar zarur paytda jonga oro kirardi.

Bir gal Islom Abdug’aniyevich pol bo’yayotib lok hididan qattiq zaharlandi. Kuchli astma xuruji boshlandi, lekin “tez yordam” chaqirishga izn bermadilar. Tuni

bilan sut ichirdim. O’sha zaharlanishdan keyin bo’yoq hidini xushlamaydigan bo’lib qoldilar.

Islom Abdug’aniyevich shanba va yakshanba kunlari odatda soat 3-4 ga qadar ishlar, keyin zarur bo’lsa birgalikda oqlash va bo’yash yumushlarini qillardik.

Islom Abdug’aniyevich qanday lavozimda ishlamasin, hech qachon xizmat vazifasidan foydalanmagan, vakolatini suiiste’mol qilmaganiga guvohman. Undan pastroq darajadagi mansabdorlar ham bosh-qacha yashar va gohida tanlagen hayot tarzimiz bois ustimizdan kulishar edi.

Hatto davlat bog’-hovlisida yashaganimizda ham avvalgidek aksar ishlarni o’zi qilishni afzal bilardi. Masalan, kechqurun ishdan keyin devorga kartina osish yoki mebel o’rnini o’zgartirish fikri tug’ilib qolardi. Garchi men e’tiroz bildirib, bu ishni ertasi kuni xizmatchilar bilan qilishini so’rasam-da, Islom Abdug’aniyevich kutib o’tirmay o’zi ishga kirishib ketardi.



*– Birinchi Prezidentimiz hayotiga doir biz bilmagan
yana qanday jihatlar bor?*

– Faqat yaqinlari ko'rgan jihatlar – Islom Abdug'aniyevichning ayrim shaxsiy fazilatlari, yaqinlariga, umuman, hayotga munosabati xususida ham so'zlab bersem.

U gul sovg'a qilishni xush ko'rар edi. Oila qurganimzning dastlabki kezlarida ham, keyinchalik Prezident bo'lganlardan so'ng ham. Hatto bog'-hovlida sayr qilib yuranimizda Islom Abdug'aniyevich hamisha biror gullagan novda yoki chechak topib, menga tuhfa etar edi. Bu xotiralarni qalbim to'rida saqlayman...

Ko'klam payti, dam olish kunlari tennis kortidagi mashg'ulotlardan keyin bog'-hovlida sayr qilib yuranganlarda Islom Abdug'aniyevich sheriklari rafiqalariga olib borishi uchun xushbo'y shumurtdan guldasta qilib berishni yaxshi ko'rар edi. Yozda esa shumurt o'rniga o'zi sevgan rayhon gullaridan hadya etardi. Hamisha odamlar ko'ngliga yorug'lilik ulashishni istardilar.

Islom Abdug'aniyevich osongina buyumlarning bahridan o'tardi. Sovg'a ulashishni yoqtirardilar-da. Uyimizda hamisha ko'plab suvenirlar bo'lar edi. Uyga mehmon kelib, kuzatayotganimizda qo'llariga tushgan buyumni hadya qilib yubordilar. Yashirib nima qildim, men olib qolishni istagan buyumni sovg'a qilib yuborsalar ranjigan paytlarim ham bo'lgan. Islom Ab-

dug'aniyevich istaganini tuhfa etib yuborishi mumkin edi. Muhimi sovg'a mehmonga yoqsa bas.

Bundan esa bir olam mammuniyat tuyardilar.

Islom Abdug'aniyevich tabiatni yaxshi ko'rар, borliqni tinglay olar, his qila bilar edi. Bu zavqni o'zi his etib qolmay, yon-atrofidagilar ham undan baha olishini istardi. Hatto bunday his-tuyg'ulardan yiroq odamlar ham vaqt o'tishi bilan, qayerda bo'lmasin, xiyobondami, bog'-hovlidami, tog'dami – tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish, undan hayrat tuyishni o'rgandi. Ayniqsa, gullagan daraxtni ko'rganida Islom Abdug'aniyevichning kayfiyati ko'tarilardi. Uning uchun oppoq paxta kabi qiyg'os gullaydigan gilos va olchadan chiroylisi yo'q edi. Daraxtlar ko'klamda ilk barg chiqqorganini ko'rganida xursand bo'lib ketar, kuzda arg'uvon tusga kirganida esa hayratga cho'mar edilar. Qor qoplagan daraxtlar, xususan, qarag'ay va qoraqarag'ayni zavq ila tomosha qilardilar. Qayinlar esa ko'r kamligi va muloyimligi bilan uni maftun etardi. Kashtan, eman, lola daraxti hamda qayinlarni xush ko'rardilar.

Bir gal ikkitagina laylak qishlagani keldi, keyinroq ular soni yetmish-saksonga yetdi. "Qo'shni"larimiz o'ta nozikta'b emasmi, Islom Abdug'aniyevich avvalo o'zi qushlarga ehtiyyotkor munosabatda bo'lar va boshqa-





lardan ham shuni talab qilar edi. Deylik, birov laylaklar yoniga borib ularni q'rqitsa, qattiq ranjir edilar. Axir, ular o'ta sezgir va nafs mavjudotlarda. Kechki qorong'i osmonda oppoq laylaklarning parvozi hayratomuz manzara edi, albatta.

Islom Abdug'aniyevich uchun oppoq qushlar tinchlik, ezgulik, baxtu saodat va osoyishtalik timsoli edi. Nafaqat o'zi, balki butun mamlakat uchun laylaklar o'ziga xos ramzga aylangani bejiz emas. Bu keyingi yillarda bunyod etilgan me'moriy obidalarda ham aks etgan. Toshkent markazidagi "Ezgulik" arkasi hamda Anjumanlar saroyi ustidagi parvoz etayotgan kumushrang qushlar timsolini ko'rib, bunga amin bo'lish mumkin.

Qattiqqo'l, ammo adolatli inson edilar. O'zlariga ham, atrofdagilarga ham talabchan edilar. U kishining hayot tarzini, ta'bir joiz bo'lsa, zohidona deb sifatlash mumkin. Taom tanovul qilishda qanoatli, bo'shashib

ketishga also yo'l qo'ymas edilar. Yoshliklardan sportga oshno yashaganlar. Hamisha yaxshi sport formasida bo'lishga intilganlar. Hayotining so'nngi kunlariqa qadar mashq zaliga borishni kanda qilmaganlar. Qolaversa, suzish va tennis bilan shug'ullanganlar.

U kishi hamisha tin olmasdan ishlar, safar va dam olish uchun vaqt sarflashni lozim topmas edi. Negaki, muammolarning oxiri yo'q edi. Ammo favqulodda imkon tug'ilib qolgan kezlarda yilda bir necha marta toqqa, Toshkent yaqinidagi Qaynarsoy maskaniga ikki-uch kunga chiqar edik. U yerda Islom Abdug'aniyevich bir zumga nafas rostlab olishi mumkin edi. U kishi mahalliy manzaralarni yaxshi ko'rар, yurtimiz tabiatni go'zalligini benazir deb hisoblar edi.

Shifokorlarga murojaat qilishni xush ko'rmas edilar va ukishini birortibbiy ko'rikka borish uchun ko'ndirish oson bo'lmas edi. Butun fikru xayollari ish bilan band bo'lardi.



– Birinchi Prezidentimiz qanday ota, qanday boba bo'lganlari haqida ham so'zlab bersangiz.

– Islom Abdug'aniyevich qorni, alalxusus, birinchi qorni juda yaxshi ko'rardи. Qorda farzandlar, keyinroq nabiralar bilan sayr qilish uchun hamisha vaqt topishga intilardilar. Islom Abdug'aniyevich bolalarni suzish, qo'rqmay suv tubiga sho'ng'ish, velosiped minishga

– a zimiz Lola kichkinaligida uni chanada uchi-
ya o'sib o'sib yashash uchun ko'chaga olib chiqar edi-
caraxt barglarini to'plardik, o'sha gerbariyalar

hozirgacha saqlanadi. Yakshanba kunlari esa bog'-hovli-da velosipedda uchardik.

Keyinroq Islom Abdug'aniyevich bog'-hovli hudудида o'shanday tiganmas zavq ila nabiralar bilan sayr qildi, ularga ham suzish, velosiped minish va tabiat go'zalligini his etishni o'rgatdi. Bolalar skeytbord va rolikda ucha-yotganini tomosha qilishni yaxshi ko'rardilar. Ularning abjirligidan hayratga tushardilar, bu boradagina oddiy kuzatuvchi edilar.





slom Abdug'aniyevich Prezident bo'lganlardidan keyin ishga yanada ko'proq diqqat-e'tibor qaratdilar va oila uchun yanada kamroq vaqt qolgan edi. Biz deyar biror yerga bormasdik. Asosan biznikiga kelishardi. Uch-to'rt oila bilan do'stona aloqalarimiz bo'lib, ular bilan gohida bayramlarda ko'rishardik.

Taqdir menga butun umr Islom Abdug'aniyevichga xizmat qilishni nasib etdi. Men turmush o'rtog'im ishlashi uchun, xususan, Prezident bo'lganlardidan keyin imkon qadar kerakli shart-sharoit yaratishga intildim. Negaki, Islom Abdug'aniyevich uchun ish juda ham muhim ekanini yaxshi bilar edim.

U kishi kuchli iroda va xarakter sohibi bo'lib, ko'p va xo'b ishlar edilar. Biz oila qurban kezlarimizda allaqa-

chon kamolga yetgan yigit edilar. Men o'shandayoq u kishining shaxsiyati ko'lamini anglagan, o'ta murakkab, lekin sharaflı bir yo'lni bosib o'tajagini his etgan edim.

Men hamisha Islom Abdug'aniyevichga hamnafas bo'ldim. Menden butun umr izlanish, o'sish, matonatl bo'lish va tushunishga odatlanish, takomillashish yo'lidan yurmoq talab etildi. Negaki, umr yo'ldoshim mudom o'qib-izlanib yuksak cho'qqilar sari talpinardi. Muhabbat bizni bir tanu bir jonga aylantirdi, butun hayot yo'limizni yoritdi...

L. Mahmudova va Yu. Sirsova suhbatlashdi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI PREZIDENTI ISLOM KARIMOVNING BMT DOIRASIDA TASHABBUSLARI VA ULARNING AMALGA OSHIRILISHI

Davlat faqatgina uning hukumati o'z ichki va tashqi siyosatini to'laligicha mustaqil olib bora olgandagina suveren bo'lishi mumkin.

Shu munosabat bilan, har bir davlatning mustaqillik qo'lga kiritilganidan so'ng eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biri, bu uning suveren davlat va xalqaro huquqning teng huquqli ob'ekti sifatida tan olinishi bo'yicha ishlarni olib borishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun ikkita asosiy yo'l bor. Bular alohida har bir davlat bilan diplomatik ishlarni olib borish yoki xalqaro tuzilmalar, masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) singari global va nufuzli mehnatzm orqali tan olinishga erishishdir.

Birinchi yo'lni bosib o'tishda xalqaro huquqning asosiy sub'ektlari va xalqaro maydonagi ishtirokchilar – suveren davlatlar bilan aloqa qilish zarur. Shuning uchun bu yerda o'rnatiladigan aloqalar mustahkamroq bo'ladi, biroq ushbu jarayon rivojlangan tashqi siyosiy apparatni talab etadi hamda sezilarli darajadagi resurslar va vaqtmi oladi.

Ikkinci yo'l esa, bir qarashda, haddan tashqari umumiyya biroz yuzaki bo'lib tuyulishi mumkin, chunki BMT Bosh Assambleyasining yakuniy qarori odatda davlat suvereniteti va mustaqilligini to'g'ridan-to'g'ri tan olish emas, balki uni Tashkilot a'zoligiga qabul qilish to'g'risida qarorni qabul qilishdan iborat bo'ladi xolos.

Shu bilan birga, unutmasislik lozimki, u yoki bu davlatning mustaqilligini har bir mamlakat o'zining milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda qabul qiladi. Ayrim mamlakatlar tarixiy, madaniy, diniy umumiylig yoki o'zining siyosiy mulohazalariga tayangan holda biron-bir yangi mamlakatning tan olinishini tezlashtiradi, biroq ko'plab mamlakatlar, odatda, betaraf pozitsiyani egalaydi va o'zi uchun deyarli notanish bo'lgan yangi mamlakatni tan olishga shoshilmaydi.

Aksariyat hollarda ko'pchilikni tashkil qiluvchi aynan shunday mamlakatlar uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining ijobji qarori "yo'chiroqning yashil chirog'i" vazifasini o'tab beradi.

O'zbekiston o'zining mustaqil davlat qurilishining boshidanoq ushbu nufuzli xalqaro tuzilmaga alohida ahamiyat bergen holda, o'zi uchun eng ustuvor vazifani belgilab olgan edi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning BMT Bosh kotibi Butros G'aliy nomiga o'z innauguratsiyasidan keyin bir kun o'tib – 1992 yilning 6 yanvarida O'zbekiston Respublikasini Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zoligiga qabul qilishni so'rab yozilgan maktubni imzolagani buni isbotlaydi. Ya'niki, bu amalda yangi mustaqil davlatning prezidenti lavozimga kirishganidan keyin qo'ygan birinchi siyosiy qadami edi. Ta'kidlash lozimki, o'sha vaqtida O'zbekistonning ichki va uning atrofidagi siyosiy vaziyat o'ta mavhum va notinch edi.

1992-yilning 2-martida BMT Bosh Assambleyasining 82-yalpi yig'ilishida 46/226-sonli rezolyutsiya qabul qilinib, ushbu hujjat tarkibida O'zbekistonni Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zoligiga qabul qilish to'g'risidagi qaror o'rın olgandi.

Ushbu voqeя respublikaning rivojlanishida yangi bosqichning boshlanishini anglatib, faol xalqaro, ilmiy-texnik va madaniy-gumanitar hamkorlikni olib borish uchun keng imkoniyatlarni ochib berdi.

Vaqt o'tishi bilan O'zbekiston dunyoning 130 dan ziyod mamlakati bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatdi, 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom Hamkorlik Tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Yevropa-da Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalarning ishida faol ishtirok etib kelmoqda va mintaqaviy hamda global ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab muammolarni hal etishda katta hissa qo'shmaqda.

Shu bilan birga, BMT barcha mamlakatlar uchun o'zini namoyon etish, mintaqaviy muammolar va ularning yechimi bo'yicha bayonot berish uchun eng maqbul va qulay maydon bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti





bir necha marotaba BMT Bosh Assambleyasi va boshqa xalqaro tashkilotlarda nutq so'zlagan hamda xalqaro miqyosdagi dolzarb muammolarni hal etish yuzasidan o'zining, ayrim hollarda, kutilmagan, biroq samimiylar va xolisona yondoshuvlarini taklif etgan. Shu tariqa, BMTning eng yuqori minbaridan u birlinchilar qatorida XXI asr "vabosi" – terrorizm va u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan narkobiznesga qarshi birgalikda kurashish masalasini ko'tardi va Markaziy Osiyoda "xavfsizlik kamari"ni shakllantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni taklif etdi. Ushbu tashabbuslar Narkotik moddalarni, psixotrop vositalarni va ularning prekursorlarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy muvofiqlashtiruvchi axborot-tahlil markazi (MOMMAM)ni tashkil etishda hamda O'zbekistonda ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi qarorgohining ochilishida o'zining amaliy ijrosini topdi.

Bundan tashqari, aynan BMT Markaziy Osiyoda yadro quroldan xoli bo'lgan hududni shakllantirishda muhim ahamiyatni kasb etdi. Uning tashabbuskorini Islom Karimov edi. Demak, 2014-yilning 6-mayida BMTning bosh qarorgohida yadroviy qurolga ega davlatlar – Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya, AQSh va Fransiya tomonidan Markaziy Osiyoda yadro quroldan xoli zona to'g'risidagi shartnomaga qo'shimcha sifatida xavfsizlik kafolatlari bo'yicha Bayonnomma imzolandi.

Shu tariqa, nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari o'z hududlarida yadroviy qurolni joylashtirishdan voz kechishini ma'lum qildilar, balki yadro quroliga ega besh-ta davlatlar ham Markaziy Osiyoning yadroviy qurolsiz mintaqaga maqomini hurmat qilish va mintaqaga mamlakatlariga nisbatan yadroviy qurolni qo'llamaslik hamda uni qo'llash bo'yicha tahdid solmaslik majburiyatini o'z zimmalariga oldilar. Bu bilan Markaziy Osiyoda yadro quroldan xoli zonani yaratish jarayoni yakuniga yetdi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning tuzilmalari ham global, ham mintaqaviy darajadagi turli vazifalar va muammolarni hal etishda ko'maklashib keladi. Shu ma'noda O'zbekiston uchun BMTning qo'llab-quvvatlashi nafaqat siyosiy, balki madaniy-gumanitar sohalarda ham zarurdir. Bu kabi qo'llab-quvvatlash va ko'mak, avvallari, ya'ni sho'ro davrida O'zbekiston tarixi haqida, yumshoq qilib aytganda, deyarli ma'lumot berilmaganini hisobga oladigan bo'lsak, yaqqol sezilladi. Ushbu respublikaga "xom ashyoni yetkazib beruvchisi" vazifasi yuklatilib, uning aholisi asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishi lozim bo'lgan edi. Uning rahbariyati u yoki bu inshootni qurish bo'yicha mustaqil qaror qa-

bul qila olmasdi, hammasiga markazdan ruxsat olish kerak edi. Xomashyo zaxiralarni qazib chiqarish va ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlarni rivojlantirish ustuvor yo'naliш sanalgani uchun respublikada biron-bir ilmiy yoki madaniy tuzilmani yaratish uchun ruxsatni olishga chin ma'noda "jang qilib" erishishga to'g'ri kelardi.

Axir bu zamin Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom al-Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom at-Termizi, Imom al-Moturidiy, Alisher Navoiy, Mahmud az-Zamaxshariy va boshqalar kabi noyob "Sharqiy Renessans"ni yaratgan yetuk davlat arboblari va olimlarini, mutafakkirlarni, shoirlaru ma'rifatchilarini o'stirib ulg'aytirgan. Ular o'tmishda ilm-fan, ta'lif, ma'naviy madaniyat markazlariga aylangan va bugungi kunda Juhon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan ko'rkar shaharlarda yashab, ijod qilganlar.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini an'analarini va urf-odatlarini, bebafo tarixiy merosiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni davlat siyosati daramasiga olib chiqdidi.

Shu bilan O'zbekistonning bugungi rivojlanishini ta'minlab kelayotgan ma'naviy yuksalish, milliy o'zini anglashni mustahkamlash, xalqning tarixiy xotirasini tiklash, uning ulkan ilmiy va madaniy salohiyatini asrabavaylash jarayoni boshlandi.

BMT qoshidagi YUNESKO kabi nufuzli tuzilmaning tashabbusi hamda davlatimiz rahbari va jahon hamjamiyatining qo'llab-quvvatlashi bilan Samarqandning 2750 yilligi, Qarshining 2700 yilligi, Buxoro, Xiva, Termizning 2500 yilligi, Marg'ilonning 2000 yilligi va O'zbekistondagi boshqa shaharlarning yubileyлari keng nishonlandi.

Hozir butun dunyo hamjamiyati O'zbekiston zamindida yashagan va ijod qilgan yetuk davlat arboblari va olimlar, shoirlar va ma'rifatchilarning Islom tsivilizatsiyasi va jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan ulkan hissasini e'tirof etmoqda. Ularning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan, ularning sharofati bilan dunyo O'zbekistonning o'zi haqida ham yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'ldi.

Umid Azizov
Islom Karimov nomidagi Yodgorlik majmuasining
xalqaro bo'lim mudiri

MUSTAQIL O'ZBEKISTON ME'MORCHILIGI YECHIMLARIDA ISLOM KARIMOV QARASHLARINING IFODA ETILISHI

Men Islom Abdug'aniyevich Karimovning rahbarligi ostida 26 yil ishladim. Davlatimiz rahbari qanchalik mamlakatimiz tarixini va xalqning ehtiyojlarini sezishlariiga men doimo hayron qolganman. Men bu insonning noodatiy, noyob fikrlashiga, bir necha o'n yillar oldindan shaharsozlik masalalarini istiqbolli yechimlarini ko'ra biliishlariga qoyil qolishdan to'xtamasdim.

Qaror va farmoyishlar bilan tasdiqlangan davlat siyosati darajasiga keltirilgan muhim shaharsozlik va arxitektura dasturlari nafaqat shaharning, balki tuman markazlari, shahar posyolkalarining bosh rejalarini ishlab chiqishga va o'zgartirishga yordam berdi. Bu mustaqil O'zbekiston mintaqalarining yangi ko'rinishini yaratishga va qiyofasining o'zgarishiga olib keldi.

Har qanday loyihani tasdiqlashdan avval ularning homaki nusxalarini va maketlarining taqdimoti o'tkazilar, ularni Islom Abdug'aniyevich diqqat bilan har tomonlama o'rganib chiqardi. Davlatimiz rahbari har doim konseptual ahamiyatga ega bo'lgan qimmatbaho tanbehlarni qilardi, hamda ob'ektlarning fasad qismlari bo'yicha o'zlarining topshiriqlarini berardilar. Ba'zida, hattoki, ornamentlarga alohida elementlarni qo'shardilar: bu

buyuk inson uchun hech narsada mayda ishlar mavjud bo'limgan.

Bizning mamlakatimizning poytaxtida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hashamdar maydonlar va binolar shaharning go'zal va betakror ko'rinishini yaratmoqda.

Mustaqillik maydoni tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Poytaxtimizdagi markaziy maydon ko'rinishining o'zgarishi – to'laligicha va butunlay Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning xizmatlaridir. Bugungi kunda, uni to'liq bir ansambl bezab turibdi. Mustaqillik maydoniga kiraverishda yuksaklarga parvoz qilishga intilayotgan laylaklar bilan bezatilgan "Ezgulik" arki ("Yaxshi va mardonavor maqsadlar arki") bilan bezatilgan. Undan o'tgandan keyin Mustaqillik va inson-parvarlik haykaliga manzara ochiladi. Mustaqillik va Baxtli ona haykali, hamda Xotira maydonidan tashkil topgan. Abadiy olov yonida o'z bolalarining Ikkinchijiahon urushi frontidan qaytishini kutolmagan Motamsaro ona bosh egib quyi solib o'tiribdi. Ularning ismlari "Xotira kitobi"ga zarhal harflar bilan yozib qo'yilgan. Arxitektura kompleksi O'zbekistonning viloyat markazlarida o'ziga xos ko'rinishlarda takrorlandi.





"Mustaqillik" va "insonparvarlik" tushunchalarida bizning eng qimmatli yutuq, eng katta boyligimiz o'z aksini topgan, ularni biz ko'z qorachig'idek asrashimiz va kelajak avlodlarga yetkazib berishimiz kerak!" – dedi O'zbekistonning Birinchi Prezidenti haykalning poyiga gulchambarni qo'yayotib.

Shu bilan birga, Mustaqillik maydonida joylashgan Oliy Majlis Senati, Vazirlar Mahkamasi binolari qayta konstruksiyalandi.

Islam Abdug'aniyevichning tashabbusi bo'yicha Amir Temur maydoni to'liq qayta shakllantirildi, uning markazida buyuk siyosiy arbob va sarkarda Amir Temurga

haykal barpo etildi.

Bo'zuv kanalining qirg'og'ida repressiya qurbanlari xotirasiga bag'ishlangan "Shahidlar xotirasasi" yodgorlik kompleksi joylashgan.

O'z vaqtida sovet hukumatining jazolovchi organlari bu yerda qatl etishlarni amalga oshirganlar. Aynan shu yerda, ziyolilarning eng sara namoyondalari: yozuvchilar, olimlar, adabiyotchilar, aktyorlar, muhandislar, otib o'ldirilganlar. Qurbanlar orasida – shunday buyuk siyolardan Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpion bo'lganlar. Kompleksning hududida XIX asr oxirlaridan boshlab va to O'zbekiston mustaqillikka erishguncha bo'lgan davrda voqealar haqida so'zlab beruvchi repressiya qurbanlari xotirasi Muzeysi yaratilgan. Bu yodgorlikning g'oyasi, asosiy mohiyati va arxitekturasi O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan bevosita aniq belgilab berilgan edi.

Islom Abug'aniyevichning o'tgan asr atoqli mutafakkirlari va jamoat arboblarining nomlari bilan bog'liq ob'ektlar haqidagi jonkuyarliklari alohida fahrni paydo qildi. U xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, bizning muqaddas dinimizni, an'analar va urf-odatlarimizning saqlanishi va rivojlanshini davlat siyosati darajasiga ko'tardi.

Birinchi Prezidentimiz bizning buyuk ajdodlari mizning merosini tiklash bo'yicha vazifalar berar va ishlarning bajarilishini diqqat bilan kuzatardi, ushbu ob'ektlarga tashrif buyurardi.

O'zbek xalqining ma'naviy va tarixiy merosini tiklash maqsadida yodgorlik komplekslarini tiklash va qurish bo'yicha ahamiyatli ishlar amalga oshirildi, ular buyuk











davlat arboblarining va olimlarining, mutafakkirlarning, shoirlar va ma'rifatchilarning yubiley sanalariga ochilishlar.

Muhim ahamiyatli voqealar qatoriga – Sohibqiron Amir Temur-ning 660 yilligi, Mirzo Ulug'bekning 500 yilligi, Imom Al-Buxoriyning 1225 yilligi, Ahmad Al-Farg'oniyning 1200 yilligi, Abduholiq G'ijduvoniyning 900 yilligi, Xoji Axror Valining 600 yilligi, Buxoro, Xiva va Termezning 2500 yilliklari, Shahrisabz va Qarshining 2700 yilliklari, Samarqandning 2750 yilligi, Marg'ilonning 2000 yilligi, Toshkentning 2200 yilligi.

Ko'rsatib o'tilgan yubiley tadbirlar O'zbekistonda keng nishonlandi, mahalliy jamoatchilik tomonidan iliq qo'llab-quvvatlandi, YUNESKO va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olindi.

Islom Karimov qishloq joylarining ijtimoiy muammlariga alohida e'tiborini qaratardi. Uning topshirig'i va bevosita rahbarligi ostida qishloq joylarida qurish uchun bir qavatl va 3 va 4 xonadan iborat turar-joy binolarning namunali loyihalari ishlab chiqilgan. Bu aholiga shaharnikidan qolishmaydigan har tomonlama qulayliklarga ega bo'lish imkonini berdi.

Islom Abdug'aniyevichning ko'rsatmasi bo'yicha Buxoro, Farg'ona va Termez shaharlarda madaniy-oqartuv shahar qurilishi komplekslari barpo etildi, ularning har biri o'z ichiga teatr, amfiteatr, kutubxona, muzey binolarini hamda sportkompleks va haykallari bilan markaziy

maydonlarni egallagan.

Islom Abdug'aniyevichning bu tashabbusi O'zbekiston hududi bo'yicha madaniy-oqartuv infratzilmasini ancha bir tekisda taqsimlashga imkon berdi.

O'tgan davrga nazar solganimizda biz ko'rib turibmiz: O'zbekiston shunchalik o'zgarib ketdiki, unga 5-10 yil oldin tashrif buyurgan insonlar ham tanimay qoldilar.

Hamyurtlarimiz va xorijiy mehmonlar uzoq bo'lma-gan vaqt davomida amalga oshgan o'zgarishlardan hayratda qolmoqdalar.

Birinchi Prezidentimizning O'zbekiston zamonaviy qiyofasi me'morchilik yechimlarida ifodalangan tashabbuslari hali ko'p yillar davomida mamlakatimizda shaharsozlik rivojining yo'nalishini belgilab beradi.

Azamat Tuxtayev

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan arxitektor,
O'zbekiston Respublikasining arxitektura va qurilish
bo'yicha davlat qo'mitasining raisi va raisining birinchi
o'rinnbosari (2000-2017)*

ISLOM KARIMOVNING O'ZBEKISTON XALQI MA'NAVIY MEROsi TIKLANISHIGA QO'SHGAN HISSASI


"Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishqisi jo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Biz shunday ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni yashnatib tursin"[1].


Xalqimizning qadimgi boy madaniyati va tirixiga murojaat qilar ekanmiz, me'moriy inshootlar milliy san'atimiz durdonalari orasida alohida o'r'in tutganiga ishonch hosil qilamiz. Buni Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Shahrisabz, Qarshi, Termiz kabi dunyoga mashhur bo'lgan shaharlarimizning qiyofasini bezab turgan betakror va o'lmas tarixiy yodgorliklar yorqin tasdiqlab turibdi. Shak-shubhasiz, jahonda bunday boy va bebafo merosga ega bo'lgan mamlakatlar juda kam. Shu bilan birga, bunday noyob merosning munosib vorislari bo'lish, uni kelajak avlodlar uchun tegishlicha asrab-avaylash, milliy an'analar va sohaning ijodiy rivojlanishini izchillik bilan davom ettirish bizdan ulkan mas'uliyatni talab etuvchi dolzarb vazifalardir. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatimizda me'moriy va monumental san'atni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. O'tgan yillarda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning shaxsiy tashabbusi va amaliy sa'y-harakatlari evaziga bu sohalar nafaqat tiklandi, balki yangi, yanayam yuqori darajaga ko'tarildi. Ko'z oldimizda mamlatimizda nisbatan qisqa davr ichida ulkan ishlar amalga oshirildi: milliy o'zlikni anglash, dunyoga mashhur ajdodarimizning sharafli nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirishga yordam beradigan me'moriy majmular va maqbaralar qad ko'tardi va tiklandi. Ushbu barcha majmular milliy ruh va tabiat, xalqimizning ishonchi, hayotiy qarashlari va intilishlariga mos tarzda har bir min-taqaning o'ziga xos xususiyatlari, shaharsozlik talablari va landshaft dizayni bilan uyg'un holda yaratildi. Aynan

shuning uchun ham mamlakatimizning turli hududlari va shaharlarida bunyod etilgan ajoyib me'moriy majmular nafaqat hamyurtlarimizning, balki xorijlik mehmonlar va sayyohlarning chinakam hayrati va tahsiniga sazovor bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari me'morlar va quruvchilar e'tiborini shu kabi ustuvor vazifalarga qaratar ekan, mamlakatimiz uchun muhim ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ahamiyat kasb etgan betakror xotira majmularini qurishga qaratilgan dasturni ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita rahbarga aylandi. Har bir yirik majmuuaning me'moriy loyihasini yaratish va uning qurilishi shaxsan O'zbekiston Prezidentining g'oyalari va takliflari asosida amalga oshirildi.

1998-yilning 23-oktyabrida Samarqand yaqinida Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi sharafiga uning maqbarasi ochildi. Majmua olimning ulkan obro'si va beqiyos maqomiga mos tarzda bunyod etildi. Maqbara mahobati va betakror me'moriy g'oyalari bilan barchada zavq uyg'otadi. Davlatimiz rahbari I.A. Karimov majmuuaning ochilish marosimida ta'kidlaganidek, "bu qutlug' mas-kanni bunyod etgan ustalarimizning mehnati har qancha tahsinga arziydi... Bir so'z bilan aytganda, uning bunyodkori butun O'zbekistondir".

Mazkur xotira majmuasining bunyod etilish tarixi uning loyihasi mamlakat Prezidentining chuqur mulohazalari asosida yaratilganidan dalolat beradi. Davlatimiz rahbari keyinchalik ham ushbu mavzuga bir necha marotaba qaytib, loyihami yangi g'oyalari va takliflар bilan boyitdi. U maxsus qurilish maydonchasiga kelib, diqqat bilan ishlarning ketish jarayonini kuzatdi, har





bir inshootni sinchiklab ko'zdan kechirdi, favoralar qanday bo'lishi, maqbara hovlisidagi qadimgi hovuzni o'zining tabiiy holatini saqlab qolgan holda qanday tiklash, qabrdan maqbaragacha tushish uchun yo'lakni qanday qurish, qanday qandillarni o'rnatish, marmar toshni sifati va rangiga qarab qanday tanlash kerakligi va boshqalar xususida qimmatli maslahatlar va ko'satmalarini berdi.

2002-yilda Termiz shahrining 2500 yilligi tantanali nishonlandi. Surxon vohasi dunyoda jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri sifatida tan olingen. Uning me'moriy yodgorliklari va arxeologik topilmalari bu o'lka haqiqatan ham qadimgi madaniyat o'chog'i ekanini tasdiqlamoqda. Hakim at-Termiziy maqbarasi aynan shunday so'nmas tarixiy yodgorliklardan biridir. Xalq tilida ushbu inshoot Termiz-ota maqbarasi, deb ham ataladi va haqli ravishda janubiy vohaning durdonasi sifatida tan olingen. Majmuani kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash maqsadida bu yerda Davlatimiz rahbari I.A. Karimovning bevosita rahbarligi ostida ulkan qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Natijada maqbara ajoyib betakror qiyofaga ega bo'ldi.

Birinchi Prezidentimiz 2002-yilning 2-apreliida Termiz shahrining yubileyiga bag'ishlangan tantanali marosimda ta'kidlaganidek, "Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Sul-ton Saodat, Qirq qiz maqbaralarining tubdan tiklanishi... nafaqat Termiz shahri, balki butun Surxon vohasining qiyofasini sezilarli tarzda o'zgartirib yubordi".

Davlatimiz rahbarining 2003 yilning 27 noyabrida muqaddas Buxoro zaminidagi Bahovuddin Naqshband maqbarasi ulug'vor me'moriy majmuasining ochilish marosimida ayтиб o'tgan quyidagi so'zlari madaniy va ma'naviy qadriyatlarimizning keng qatlamini tushunib yetishga asoslangan milliy o'zligimizni anglash g'oyasiga bo'lgan doimiy qiziqishning yorqin tasdig'i bo'la oladi: "Sizlarga ochiq aytam, Bahovuddin Naqshband bobomizning mana shu muqaddas qadamjosini obod qilish fikri ko'p yillardan buyon xayolimni band etib kelardi. Har safar shu muqaddas dargohni ziyorat qilganimda shu buyuk zotning ruhi oldida qandaydir o'zimni qarzdor deb his etardim... Va o'tgan yilning oktyabr oyida ana shu niyatda atay vaqt ajratib Toshkentdan bu yerga maxsus keldim. Bu ishga daxldor bo'lgan rahbarlar, loyihibachilar va quruvchilar bilan yodgorlik majmuasini yangitdan buniyod etish masalasini shu joyning o'zida muhokama qilganimizda boshqa inshootlar bilan birga, mana shu yangi ayvonnig qaerda va qanday shaklda

bo'lishini o'z qo'lim bilan chizib bergan edim. Odamni hayratga soladigan tomoni shundaki, quruvchilar shu loyiha bo'yicha ish boshlaganida aynan shu paytida belgilab bositgan joydan ilgari mayjud bo'lgan eski ayvonning ko'milib ketgan poydevori chiqibdi. Bularning barchasi mana shu maskanning ilohiy xosiyatidan, Bahovuddin Naqshband bobomizning ruhi barhayotligidan yana bir dalolatdir, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasizlar"[2].

Toshkentdagagi Hazrati Imom me'moriy majmuasi xalqimizning boy ma'naviy merosining bir qismi bo'lib, unda Hazrati Usmonning amri bilan yozilgan Qur'onning nusxalaridan biri saqlanadi. Bugungi kunda bu yer muqaddas majmua bo'lib, musulmon olamida katta nufuzga ega. Uning tarkibiga kiruvchi tarixiy yodgorliklar – Kaffol Shoshiy maqbarasi, Tilla Shayx va Namozgoh masjidlari xalqimiz tomonidan asrlar davomida har tomonlama asrab kelinmoqda va muhofaza qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2007-yil 20-fevraldagi "Hazrati Imom (Hastimom) jamoatchilik jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qaroridan kelib chiqib, qisqa muddatda bu yerda keng ko'lamli qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari bajarildi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda chuqr o'ylangan va ilmiy asoslangan yondoshuvlar negizida yaratilgan har bir memorial majmua chinakam milliy ahamiyat kasb etib, har bir hamyurtimizning qalbi va yuragidan munosib joy egalladi. Yurtimizda tarixiy va me'moriy yodgorliklarni qurish, ta'mirlash va tiklash bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamdagи ishlар nafaqat xalqimizning, balki dunyo hamjamiyatining ham e'tibori va e'tirofiga loyiqidir. Xususan, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti (AYSYeSKO) 2007-yilda Toshkent shahrini "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qildi. Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar va ziyoratchilarning soni yildan yilga ortib bormoqda.

Monumental san'atning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u "tipik" me'morchilikdan farqli o'laroq, o'zining mumtozligi va betakrorligini namoyish etadi, ijtimoiy hayotning ma'naviy rivojlanishini ta'minlashda ulkan xizmat ko'satadi. Mustaqillikning ilk kunlari dayoq davlatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan e'lon qilingan "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin!" shiori millionlab hamyurtlarimizning qalblaridan joy olib, ularni yangi marralarni zabit etish yo'llida yanada jipslashtirdi.



Respublikada amalga oshgan va bo'lib o'tayotgan o'zgarishlar hamda yangilanish jarayonlari haqida ko'p yozish mumkin. Biroq biz faqatgina arxitekturaviy-memorial majmualar qurilishi sohasida amalga oshirilgan, ulkan tarixiy va ma'nnaviy ahamiyat kasb etgan katta hajmdagi ishlar haqida so'z yuritmoqdamiz, xolos. Shubhasiz, bir sohada erishilgan yutuqlar butun mamlakat miqyosidagi yaratuvchilik ishlarining katta hajmlarini har tomonlama tasavvur etish imkoniyatini beraidi. Nisbatan qisqa tarixiy davr ichida mamlakatimizda mustahkam o'rashgan do'stlik va yuksak ma'nnaviyat an'analari asosida insonlarning qalbiga yo'l ochildi. Bu o'zbek haykaltaroshlik san'atining mustaqillik yillarda erishgan eng yuksak yutug'idir.

Mazkur maqolani biz O'zbekistonda mustaqillik yillarda bunyod etilgan ayrim arxitekturaviy-memorial majmualarga bag'ishladik xolos. Shubhasiz,

barcha majmualarning to'liq qiyofasi, chuqur ma'nosi va mazmunini oolib berish kitoblarni yaratish va yangi ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish uchun mavzu vazifasini o'tab beradi.

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'nnaviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Buyuk ajdodimizga sharaflar bo'lsin. 2003-yilning 27-noyabrida Bahovuddin Naqsh-dandiy xotira majmuasidagi tantanalarda so'zlagan nutqi.

Tursunali Kuziev
*Islom Karimov nomidagi Yodgorlik
majmuasi rahbari o'rinnbosari, akademik*

MUSTAQIL O'ZBEKISTONNING DAVLAT MUKOFOTLARI VA ULARNING YARATILISH TARIXI

Hozirgi kunda barchamizga mamlakatimizning davlat mukofotlari yaxshi tanish. Taqdirlangan vatandoshlarimiz haqida esa matbuotdagi xabarlarda o'qiyimiz, ular uchun xursand bo'lamiz. Ammo, ko'pchiligidan ushbu mukofotlar qachon ta'sis etilgani, qanday yaratilgani, ularning qancha variantlari ko'rib chiqilgani, bu yo'nalishda qanday ulkan ishlar olib borilgani haqida hech ham o'ylab ko'rmasaganmiz.

Birinchi bor davlatimiz mukofotlari haqidagi ma-

Karimovga nafaqat mukofotni yaratish g'oyasi tegishli bo'lgan, balki u mukofotning umumiy konsepsiysi va dizaynnini shakllantirib bergen, muhokamalarda bevosita ishtirot etgan.

G'oyat aniq darajadagi ish natijasida eng maqbul variantlar topildi. Tasdiqlangan namunalar bo'yicha 20 ming medallardan iborat birinchi partiya Italiyada ishlab chiqarilgan, chunki "Fonon" ishlab chiqarish birlashmasi tashkil topish va shakllanish jarayonida edi. Keyinchalik



salani 1992-yilning iyunida Prezident Islom Karimov ilgari surgan. O'sha vaqtida O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik kunining bir yillik bayramiga bag'ishlangan medalni ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan edi.

Hukumatimiz tomonidan shunday vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida "Fonon" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etilib, unga rahbarlik qilishga akademik Muxsin Ashurovni tayinladilar.

Ushbu mukofotni yaratish va uning ustida ishslash jarayonlarida medalning ko'pgina variantlari taklif qilingan va ko'rib chiqilgan, deb eslaydi akademik. Islom

bu korxona eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan bo'lib, ular kelajakda yaratilgan orden va medallarni ishlab chiqarishga imkon yaratdi.

Islom Abdug'aniyevich ona va bola salomatligini muhofaza qilish masalalariga alohida e'tiborni qaratganlar. "Sog'lom ona – sog'lom bola" – bu ular siyosatlarining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri edi. Shuning uchun, mustaqil O'zbekistonning birinchi davlat mukofoti "Sog'lom avlod uchun" ordeni bo'lishi bejiz emas, u Birinchi Prezidentning tashabbusi bilan 1993-yilda ta'sis etilgan edi. Ona bilan bolaning tasviri tushirilgan



Respublikada amalga oshgan va bo'lib o'tayotgan o'zgarishlar hamda yangilanish jarayonlari haqida ko'p yozish mumkin. Biroq biz faqatgina arxitekturaviy-memorial majmualar qurilishi sohasida amalga oshirilgan, ulkan tarixiy va ma'naviy ahamiyat kasb etgan katta hajmdagi ishlar haqida so'z yuritmoqdamiz, xolos. Shubhasiz, bir sohada erishilgan yutuqlar butun mamlakat miqyosidagi yaratuvchilik ishlarining katta hajmlarini har tomonlama tasavvur etish imkoniyatini bera-di. Nisbatan qisqa tarixiy davr ichida mamlakatimizda mustahkam o'rashgan do'stlik va yuksak ma'naviyat an'analari asosida insonlarning qalbiga yo'l ochildi. Bu o'zbek haykaltaroshlik san'atining mustaqillik yillarda erishgan eng yuksak yutug'idir.

Mazkur maqolani biz O'zbekistonda mustaqillik yillarda bunyod etilgan ayrim arxitekturaviy-memorial majmualarga bag'ishladik xolos. Shubhasiz,

barcha majmualarning to'liq qiyofasi, chuqur ma'nosi va mazmunini ochib berish kitoblarni yaratish va yan-gi ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish uchun mavzu vazifasini o'tab beradi.

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Buyuk ajdodimizga sharaflar bo'lsin. 2003-yilning 27-noyabrida Bahovuddin Naqsh-dandiy xotira majmuasidagi tantanalarda so'zlagan nutqi.

Tursunali Kuziev
*Islom Karimov nomidagi Yodgorlik
majmuasi rahbari o'rinosari, akademik*

mukofot ikkita darajaga ega. U bilan onalik va bolalikni muhofaza qilish, o'sib kelayotgan avlodning salomatligini mustahkamlash, uni ma'nani, jismonan tarbiyalashda ko'rsatilgan alohida xizmatlar hamda bolalarning manfaatlari yo'lidagi xayriya ishlarini rivojlantirishdagi faol ishtirok uchun taqdirlanadilar. Bu O'zbekistonning birinchi ordeni bo'lib, o'zining maqomiga ko'ra dunyo amaliyotida unga o'xshash muqobili yo'q.

1994-yilning may oyida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tashabbusi bilan "O'zbekiston Qahramoni" unvonini ta'sis etish haqidagi qonun qabul qilinib u bilan oliy mukofot "Oltin Yulduz" mukofoti hamda "Mustaqillik" va "Do'stlik" ordenlari, "Jasorat" va "Shuhrat" medallari taqdim etiladi.

"Jasorat" medali bilan harbiy yoki xizmat burchini bajarishda, respublikaning milliy xavfsizligini ta'minlashda, jamoat tartibini saqlashda va jinoyatchilik bilan kurashishda ko'rsatgan mardligi va jasorati uchun harbiy xizmatchilar, Milliy xavfsizlik xizmati va O'zbekiston Respublikasining ichki ishlari xodimlari mukofotlanadilar. "Jasorat" medali bilan jamoat tartibini saqlashda, tabbiy ofatlar, yong'inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar vaqtida odamlar hayotini, davlat va jamoat mulkini qutqarishda ko'rsatgan jasorati uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari yoki mamlakat fuqarosi bo'limgan shaxslar taqdirlanishi mumkin.

Vatanimizning eng yuqori mukofotlaridan biri Amir Temur ordeni bo'lib, u Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning tarixiy adolatlilikka, milliy g'ururni oshirishga, Amir Temurning xotirasi va qoldirgan merosini tiklashga alohida e'tibor bergenidan dalolat beradi. Orden Sohibqironga chuqrur hurmat va shaxsining ardoqlanishiga amal qilish sifatida buyuk ajdodning xotirasiga munosib bo'lishga da'vat etadi.

Amir Temurning 660 yilligini nishonlash maqsadida Islom Karimovning tashabbusi bilan 1996-yilda mamlakatimizda Amir Temur yili deb e'lon qilinib, shu yili hozirda O'zbekistondan tashqarida uzoqlarda ham mashhur bo'lgan Temuriylar tarixi Davlat muzeyi tashkil etildi.

Shu yubiley yilda Birinchi Prezident farmoni asosida Amir Temur ordeni bilan Amir Temurning hayot faoliyatida alohida o'rinn egallagan Samarqand va Shahrisabz shaharlari taqdirlanadilar. Buyuk Sohibqiron qadimgi Keshda tug'ilgan va unib o'sgan, Samarqand esa uning qudratli mamlakatining poytaxti bo'lgan. Mustaqillik yillarda Islom Abdug'aniyevich tashabbusi bilan yubi-

leylari keng nishonlangan ushbu shaharlар o'z qiyofalarini o'zgartirishdi va yanada go'zalroq tus oldilar.

Mustaqillikning 23 yilligi bayrami arafasida Birinchi Prezident farmoniga muvofiq Amir Temur ordeni bilan Termiz shahri ham taqdirlandi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasining mukofotlar tizimi quyidagilarni o'z ichiga olgan:

- 11 ta orden;
- 12 ta medal va esdalik belgilari;
- 35 ta faxriy unvon.

O'zbekistonning mukofotlar tizimi tarkibiga sof harbiy mukofotlar "Jaloliddin Manguberdi", "Shon-sharaf", "Mardlik" ordenlari, "Jasorat", "Sodiq xizmatlari uchun" medallari; tinchlik, mehnat bilan bog'liq mukofotlar – "Mehnat shuhrati", "Sog'lom avlod uchun", "Do'stlik", "El-yurt hurmati" ordenlari, "Shuhrat" medali va mehnat faoliyatidagi fidokorona xizmatlari hamda harbiy xizmatlari uchun beriladigan universal mukofotlar – "O'zbekiston Qahramoni" unvoni, "Mustaqillik", "Amir Temur" ordenlari va boshqalar bor.


Ushbu mukofotlarni yaratish jarayonida Islom Abdug'aniyevich faol ishtirok etgan, shaxsan o'zları taklif etilgan eskizlar ishlab chiqishda, rang gammasisiga, simvolikasiga, kompozitsion yechimlariga, orden tasmalari variantlariga tuzatishlar kiritgan.

Mustaqillik yillarida yaratilgan ko'p sonli mukofotlarga Birinchi Prezidentimiz qo'llari bilan kiritilgan tuzatishlar va to'g'irlashlar mavjud eskizlar saqlanib qolgan, bu esa Islom Abdug'aniyevich har bir davlat mukofotini yaratish jarayoniga qanday ahamiyat kasb etganligi haqida daloлат beradi. Birinchi Prezidentimiz bizga ma'lum bo'lgan mukofotlarning bosh dizayneri, tanqidchisi va ko'pincha muallifi bo'lgan.

Ravshan Nazarov
falsaфа fanлari nomzodi




Муаллиф Н. А. Каримов



"БИЗ ЙОК ХИЗМАТЛАРИ УЧУН" ОРДЕНИ



Муаллиф Н. А. Каримов




ОСНОВНАЯ, ПРОФИЛАКТИЧЕСКАЯ РАБОТА

ОЧИЧИ
ХИЗМАТ

32 MM

28 MM



Две чеки
серебро
и золото

Из золота
жакшын тара
был азаси
с юбилей
шемисиз яшес
ка 1940-дан белгисиз
кайтаси ишмас.

“O’Z ISHLARIMDA MEN O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI PREZIDENTINING G’OYALARINI GAVDALANTIRDIM”

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrdagi Qaroriga muvofiq O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug’aniyevich Karimovning haykalini yaratish bo'yicha xalqaro ijodiy tanlov tashkil qilingan edi.

Tanlovda O’zbekiston, Ukraina, Janubiy Koreya, Turkmaniston, Germaniya, Italiya va Avstraliya-dan 58 nafar muallif ishtirok etdi. Tomoshabinlar e'tiboriga jami 68 ta loyiha havola etildi.

Tanlovda mashhur haykaltarosh, O’zbekiston badiiy Akademiyasining haqiqiy a'zosi, O’zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, A. Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti sohibi Ilhom Jabborov g'olib bo'ldi.

Biz undan tanlovdagi ishtiroki va Islom Karimovning haykalini yaratishga oid ijodiy jarayon to'g'risida o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashishni iltimos qildik.



– Eng avvalo, bunday nufuzli tanlovda qatnashish men uchun juda mas'uliyatli va ayni paytda oljanob ish bo'lganligini ta'kidlamoqchi edim. Tanlovnинг boshqa ishtirokchilariga nisbatan, menda bir afzallik bor edi, u ham bo'lsa shundan iboratki, men O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov bilan yaxshi tanish bo'lganman va mustaqillikning qator yillari davomida o'z asarlarimda uning g'oyalarini gavdalantirgan edim. Hozir ushbu asarlarim butun respublikamiz bo'ylab o'rnatilgan.

Mustaqillikning ilk yillardan boshlab men Islom Abdug’aniyevich bilan bevosita hamkorlikda ish olib bordim. Ana shu yillar davomida men uni puxta o'rgandim, turli holatlarda qiyofasining tuzilishi, kayfiyati va harakatlarini kuzatdim, chunki yurtboshimiz bilan bir yil davomi-

da o'rta hisobda uch-to'rt marta uchrashardim.

Mustaqillik yillarda yaratgan barcha ishlarim mam-lakatimiz Birinchi Prezidenti tomonidan bayon etilgan konseptual g'oyalar va kompozitsion yechimlarga il-homlanib va keng yondashib ularda fikr va g'oyalarini, yurtimiz tarixining turli davrlarida mashhur bo'lgan va jahon tarixida yorqin iz qoldirgan shaxslar haqidagi badiiy tasavvurlarini aks ettiradi.

Islom Karimovga eng yaxshi haykali uchun konkurs e'lon qilinganda men Birinchi Prezidentimizning badiiy obrazlarini yaratish imkoniga alohida iliqlik, samimiylig bilan yondashdim. Uning tashqi ko'rinishida men ichki kechinmalarni, xalqqa bo'lgan mehrini va muhabbatini aks ettirishni xohlardim. Men Islom Abdug’aniyevich qiyofasini o'z xotiramda saqlanib qolgan hayotiy cheh-



ralarini qayta tiklab hamda foto va video materiallardan foydalanib gavdalantirishga qaror qildim.

Biz tanlovgaga ishning yettita namunasini taqdim etdik va ulardan ikkitasi qabul qilindi. Natijada menga birinchi o'rinnasib etdi va monumentning yaratish bo'yicha ishlarni boshlash haqida vazifa yuklatildi.

Hozir, haykalini "Oqsaroy" binosi oldiga o'rnatish ishlarni yodga olar ekanman, u o'rnatiladigan tagkursining balandligi haqida bir nechta fikrlar paydo bo'ldi. Fikrlar bo'lindi: men uning balandligi aniq bir balandlikda bo'lishi kerakligi haqidagi fikrimda turdim, ammo boshqalar esa, (ularning orasida Tatyana Akbarovna ham bor ed), tagkursi biroz pastroq bo'lishi kerakligi haqida taklif berishdi. Men haykalga turli tomonlardan nazar tashlab ko'rishni taklif qildim. Biz hammamiz birgalikda haykaldan uzoqlashib va yana yaqinlashib jo'shib u yoki boshqa balandliklardagi ko'rish samaralari to'g'risida bahs-munozaralar olib bordik. Natijada men o'zimning dalil-isbotlarim to'g'ri ekanligiga hammani ishontirdim, chunki haykal muhtasham "Oqsaroy" binosi oldiga o'rnatilayotganligi va tagkursining pastroq balandlikda o'zining ulug'vorligini yo'qotishi mumkin edi. Pirovardida, men tomonimdan taklif qilingan tagkursining balandligi maqbulligi haqidagi fikrimga hamma qo'shildi. Bunda Tatyana Akbarovnaning tagkursini silindrik shaklda qilish "Oqsaroy" binosining shakli bilan juda uyg'unlikda mos kelishi haqidagi taklifining muhimligini ta'kidlab o'tish joizdir. Shunday qilib biz o'maslahat tagkursining shakli va ba-landligini aniqlab oldik. Keyinchalik haykalni o'rnatish biz-ning umumiyligimiz to'g'ri ekanligini tasdiqladi.

Islom Abdug'aniyevichning haykali men uchun

– bu muqaddas burch va O'zbekistonning Birinchi Prezidentiga nisbatan hurmatdir, u bilan menda yaxshi munosabatlar paydo bo'lgan. Bunday buyuk insonning qiyofasini qayta yaratish bo'yicha ishlar, shak-shubhaisiz, men uchun katta sharaf!

– Islom Abdug'aniyevich bilan ilk uchrashuvning yodgingizdamisi?

– Ilk uchrashuvimiz ustaxonada bo'lib o'tgan. Birinchi Prezidentimiz o'zining chopqir oti egarida o'tirdan buyuk sarkarda va siyosiy arbob Amir Temur haykali maketini ko'rishga kelganlar. Bu haykalni Toshkentda o'rnatish mo'ljallangan edi.

Ko'pgina tanbehlar berilgan edi. Islom Abdug'aniyevich haykalni qanday his etayotganliklari haqida, Amir Temurning ulug'vorligi haqida uzoq so'zlab beriganlar. Mamalakatimiz rahbarining chuqur bilimlari bizni hayratga solardi. Ularning diqqatidan birorta ham detal chetda qolmasdi: gavdasi, qo'l harakatlari, chopqir otning holati – bularning barchasi haqida Islom Abdug'aniyevich qalblaridan jo'shib gapirib berardilar. Hayrlasha turib Islom Abdug'aniyevich mening qo'llimi siqib qo'ydlilar. Ularning o'tkir nigohlari yuragimning tub-tubigacha yetib bordi va bir vaqtning o'zida iliqlik baxsh etdi. Bu nigoh menda butun umrga esda qoldi.

Hozirgi kunda Amir Temur haykali shahar aholisini va poytaxt mehmonlarini o'ziga jalb qilib, Toshkentning markaziy sayilgohini bezab turibdi. Sohibqiron otda o'tirgan hukmdor, jangovar aslahalar bilan kiyungan ko'rinishda aks ettirilgan. Go'yo hozirgina g'alabali yurishdan qaytgandek. Chap qo'llarida qizishib ketgan ot jilovini

Ушта боласыки күнде оның ша
инишид, жә озинча өткіншіл ағас
турдағын дұлғағы. Қызынан
түркізген тәсіл тарзы.



У сілде ке шоғырды
Күйнің со болып табылған
көз баласындардың көрек
Хесек-
им
бұлалы
отыр.
Көлемдік
Оданы
қызын
күйнін
майда
ен
хөреке.



✓ Капы 8-бонар мүжінің үзініңкес көрсегін.



ushlab turibdilar, o'ng qo'llari esa ularni kutib olayotgan xalqqa yo'naltirilib, davlatda tinchlik va osoyishtalik hukm surayotganligi haqida xabardor qilayotgandek.

- Ishlaringizning qay birlari siz uchun ayniqsa qadrli?

– Men uchun barcha ishlarim qadrli, chunki ular mening bolalarimdek bo'lib qolgan. Bular Amir Temur haykali, xotira maydonidagi Motamsaro ona yodgorligi, Mustaqillik maydonidagi Baxtli ona haykali, Nizomi Ganjaviyga bag'ishlangan haykaltaroshlik kompozitsiyasi, olim-matematik va astronom Ahmad al-Farg'oniy haykali, Belgiyadagi Avitsenanening haykaltaroshlik kompozitsiyasi va boshqalar. Men "Qadimgi va mangu Buxoro" monumenti uchun barel'eclar yaratdim. Menda hattoki Islom Abdug'anievich o'z qo'llari bilan kiritgan tuzatishli ishchi eskitilar saqlanib qolining.

Mening bu ishlarim ko'pgina shaharlarning arxitekturasini munosib to'ldirib turganidan juda hursandman. Men uchun haykaltaroshlik – bu mening butun hayotimdir. Men shunday ulug' inson bilan tanish bo'lganligim va Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning haykalini yaratish sharafi aynan mening zimmamga tushganligi uchun taqdirimdan minnatdorman.

Suhbatlashdi **N. Nurmatov**
Islom Karimov nomidagi Yodgorlik majmuasi
matbuot kotibi



ИСЛОМ КАРИМОВ
НОМЛАДИ
Республика Каримов Жамоат фонди

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI BIRINCHI PREZIDENTI ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOV
TAVALLUDINING 80 YILLIGIGA BAG'ISHLANADI